

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI»
KAFEDRASI

*“Buxoro tarixiy obidalarini moybbo'yoqda bajarish” (Abdulxoliq
G'ijduvoni tarixiy obidasi misolida)*

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi
4-2 ASK-15 kurs talabasi
Maxmudova Moxigul

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi
SH. Ramazonov

Bitiruv malakasi ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi «_____» _____ 20.. yil

BUXORO – 2019

Kirish.....	3-11. bet
I.BOB. MARKAZIY OSIYO HUDUDIDAGI TARIXIY YODGORLIKLAR	
1.1§. O'zbekiston me'morlik san'ati	12-23. bet
1.2§. Me'moriy bezaklarining shakl va ranglarini ramziy ifodasi ...	24-37. bet
II. BOB. BUXORO ME'MORCHILIGI	
2.1§. Buxoro me'morchilik san'ati tarixidan.	38-57. bet
2.2§. Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi.....	58-71. bet
III. BOB. MARKAZIY OSIYO ME'MORCHILIK OBIDALARINI TASVIRIY SAN'ATDA AKS ETTIRILISHI	
3.1§. Moybo'yoq rangtasvir texnikasi.....	71-74. bet
3.2§. Tasviriylar san'atda ranglar tushunchasi.....	75-82. bet
3.3§. Me'morchilik obidalarini tasvirlashda kompozitsiya va perspektiva kengligi	83-85. bet
3.4§. " Abdulxoliq G'ijduvoniylar "majmuasini moybo'yoqda tasvirlash texnologiyasi.....	86-89. bet
IV.Xulosa.....	90-91. bet
V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	92-99. bet
VI.Ilovalar.....	94-95. bet

KIRISH

Bugungi kunda ham Buxoro tillasi asl tilla hisoblanadi. Lekin Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlaridir.

Islom Karimov.

Har bir jamiyatning kelajagi uning hayotiy zarurati va ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

Ta'lim - bu chuqur, har taraflama asosli ta'lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub va yo'nalishlarining mukammal uyg'unligidan iboratdir.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (yoki o'quvchi) ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdir.

O'zbekiston tarixiy obidalari fani talabalarda tarixiy obidalar haqida bilimlarni shakllantirish va yodgorliklar haqida ma'lumotlarni bilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Dastur ketma-ketlikva oddiydan murakkabga prinsipi asosida tarixiy obidalarini o'rganish, og'zaki tarjima ko'nikmalari va malakalariga ega bo'lishni talab etadi.

O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat ekanligini belgilashda ko'pgina sohalarda e'tibor berilgani kabi yoshlarga tasviriy san'at sirlarini o'rgatish ham bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida berilganidek yoshlarning nafosatini o'stirish, ularni san'at gulshanidan, avlod-ajdodlarimizning boy me'rosi va umum jahon sivilizasiyasida erishgan san'at namunalaridan bahramand qilishlik, yoshlarni tasviriy san'at sohasini o'rgatishda muhim sanaladi.

Ta'lim tizimida sharq alomalari san'at sohasidagi fikrlari va ularning yoshlarni tarbiyalashdagi uziga xos ijobiy tomonlarini inobatga olgan holda amalda qo'llanildi. Ulkan ijodkor allomalar Kamoliddin Bekzod, M.Muzaxxib, Murod Samarqandiy kabilarning yirik san'at asarlari bilan tanishish sharafiga mustaqillik tufayli erishildi.

San'atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakillanib bordi: me'morchilik, haykaltaroshlik, rang tasvir, grafika, amaliy bezak san'ati va boshqalar. Ularning barchasi inson ma'naviy hayotining muhim qismi bo'lib, yuksak badiiy ideallarni, go'zallik haqidagi tushunchalarini ifoda etadi. Bir san'at turi boshqasidan using mazmuni, badiiy-ifodaviy vositalari va uslubi, materiali, obrazli anglash darajasi, his-tuyg'ulariga ta'siri va hayotiy ahamiyati bilan varq qiladi. Har bir san'at turi taraqqiyot, tanazzul va tushkunlik davrlarini boshdan kechiradi, rivojlanish jarayoni bir tekis kechmaydi. Lekin doimo o'z chegarasini va badiiy vositalarini kengaytirish imkoniyatiga ega. Bunga ba'zan boshqa san'at turlarinig, shuningdek, fan texnikaning erishgan yutuqlarini tabiiy o'zlashtirish orqali erishililadi.

Tasviriy san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir, rasm chizishni puxta egallsh barcha san'at turlarida muhim urinni egallaydi.

Tasviriy san'atning muhim turlaridan biri grafika san'ati sanaladi. Grafika tasviriga bo'lgan ehtiyoj esa ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'la boshlagan. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi arxeologik qazish ishlari bu

yerda yashagan xalqlarning tasviriy san'ati ancha yuksak bulganini ko'satadi. Ular ish faoliyatlarini qoya toshlarga o'yilgan tasvirlarda aks etganlar.

Shunday qilib, o'zbekiston hududiga asta-sekin arxetektura qurilish chizmalarini bajarish takomillasha borgan va shu chizmalar asosida binolar qurish shunday yuqori darajada ko'tarilganki, so'ngi 10 asrdan ortiq vaqt davomida Buxoro shahrida avlodlarimiz tomonidan bunyot etilgan tarixiy obidalar, turar joy binolari hozigi kunga kelib jahon arxitektura san'atining durdonalriga aylangan. Shu sababli ham Buxoro tor ko'chalari (eski shahar) Buxoroni "ochiq osmon ostidagi muzey" shahar deb bekorga aytmasalar kerak.

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri - san'at-tabiat va jamiyatda bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. Tasviriy san'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko'ra tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

Tasviriy san'atda manzara janrida san'at asari yaratishning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

O'zbekiston tasviriy san'atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy va ijodiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak."¹ Shu maqsadda Respublikamiz

¹ "Xalq ta'limi" jurnali 1992 yil, 10-12 son 1-bet.

hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San'at, xususan tasviriy san'at istiqlool davrida mafko'raviy - g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ'ibot vositalariga o'xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko'p asrlik tarixga ega O'zbekiston tasviriy san'atida manzara janrida yaratilgan san'at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san'at turlari kabi manzara janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san'at tarixini kundan-kunga yangi ma'lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muxtasarlab quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Milliy istiqlool tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy ma'naviy-madaniy yangilanishida o'ziga xos yo'lni tanladi va bu jarayon yurtboshimiz I.A.Karimov rahnomoligida bosqichma-bosqich davom etmoqda. Shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish, yurt taraqqiyotini ta'minlash, yoshlar qalbiga va ongiga milliy istiqlool mafko'rasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan, har bir jamiyatning ijodkor qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urishi va g'amxo'rlik qilishi zarurdir.

Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san'at asarlari, madaniy-ma'rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai- nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy san'at asarlarida "Ismoil Somoniy" maqbarasi mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqyosda o'rganib, ta'lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'quvchi – o'quvchilarni ushbu janrda asar

yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o'rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asrab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san'atiga ega bo'lishni taklif qilinadi.

Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh beraoladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib topdirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta'kidlanga-nidek, "...o'qishni, **mustaqil bilim olishni** individuallashtirish hamda distanstion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish"² talab etiladi.

Binobarin, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning grafikaviy tayyorgarligini mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirish tadqiqotimizning muammosini belgiladi va mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Bu yechimini kutayotgan muammolarni hisobga olgan holda, shuningdek fan va texnika taraqqiyotining hozirgi rivoji, zamonaviy ishlab chiqarish darajasi, oliy texnik ta'lim tizimida me'mor mutaxassislarni tayyorlashdagi kamchiliklardan kelib chiqib, mustaqil ta'limni faollashtirish asosida grafikaviy tayyorgarligini takomillashtirish zarur.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan boy tarixga ega bo'lib, uni Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Shahrisabz kabi ko'pgina shaharlarning qadimiy yodgorliklarida ko'rish mumkin. Ushbu yodgorliklarning rang-barangligi, yuksak badiiy saviyasi, falsafiy va

² Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. / Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент, 1997. – Б. 31-61.

ma'naviy mazmuni bilan birga bir necha asrlar davomida butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelmoqda.

Shaxs tarbiyasi va uning ma'naviy jihatdan boy tarzda ta'lim olishiga oid masalalar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida olimu-fuzalolar, mutafakkirlar, psixologlar, faylasuf va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qomusiy allomalar – Abu Nasr Forobiy, Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning komil inson tarbiyasi va uning mohiyati haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil etishdan shunday xulosaga keldikki, mazkur muammoni nazariy va amaliy jihatlar O'zbekiston Respublikasi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi miqyosida so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari respublikamizda A.A.Abduqodirov, J.G'.Yo'ldoshev, N.Sayidaxmedov, F.R.Yuzlikaev, J.Tolipova, N.A.Muslimov, Sh.E.Qurbonov, O'.Q.Tolipovlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Ularning ishlarida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisini metodik tayyorlash tizimini rivojlantirish tamoyillarini aniqlash, oliy pedagogik ta'limda o'qituvchini metodik tayyorlashning turli modellarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilgan.

Tasviriy san'atni darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitish metodikasi Hamdo'stlik mamlakatlari va O'zbekiston olimlaridan V.Kuzin, N.Rostovstev, O.Arutyunyan, V.Strokov, B.Baymetov, J.Darmenov, R.Hasanov, Q.Qosimov, N.Tolipov, A.Amanullaevlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatish masalalari O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining joriy etilishi, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, o'rta umumta'lim maktablarida o'qitilishi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbek olimlaridan A.Amanullaev,

S.Abdullaev, X.Alyaminov, B.Azimov, B.Baymetov, S.Bulatov, J.Darmenov, B.Oripov, A.Sulaymonov, N.Tolipov, O.Xudoyorova, Q.Qosimov, R.Hasanov va boshqalar tomonidan tasviriy va amaliy san'atni o'qitish metodikasiga oid ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Mazkur tadqiqotlarda shaxsni tasviriy san'at me'morchilik namunalari asosida badiiy-estetik tarbiyalash, uning kasbiy mahoratini o'stirishda shaxs rivojlanishining ichki ehtiyojlari, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berishda yoshlarga o'tmish madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslari e'tirof etiladi.

Ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida ta'lim tizimi va yuqori malakali kadrlar tayyorlashni isloh qilish, rivojlantirish muammolari, Davlat ilmiy-texnik dasturining "Yosh avlodni tarixiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: oliy ta'lim tizimida tarixiy obidalardan Tasviriy san'at fanini o'qitishda foydalanish, ta'lim mazmunini modernizastiyalash va mustaqil ta'lim olish faoliyatini faollashtirish asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

Mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari va tog' manzarasida ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafko'raning shakllanish jarayonida tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan tog‘ manzarasi kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o‘rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko‘proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir. -“Yozgi etyud” mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o‘rganish;

- “Ismoil somoniy maqbarasi” mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

-“ Buxoro tarixiy obidalar aks ettirilgan manzara kompozitsiyasini bajarish texnologiyasi va uni o‘qitish texnologiyasi” mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali o‘zbek millatiga xos milliy urf-odat va an‘analarning tutgan o‘rnini va ahamiyatini ko‘rsatish;

-“ Buxoro tarixiy obidalar aks ettirilgan manzara kompozitsiyasini bajarish texnologiyasi va uni o‘qitish texnologiyasi” mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o‘rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

Tadqiqot ob’ekti. Oliy ta’lim tizimida “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalariga ta’lim berish tizimi.

Tadqiqot predmeti. Talabalarning tasviriy san’at o‘qitish tizimida ta’lim mazmuni va texnologiyasi.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Oliy ta’lim tizimida tasviriy san’at ta’lim jarayonining sifatini oshirish mumkin, agar:

- talabalarning o‘quv-amaliy faoliyati mazmuni zamonaviy ishlab chiqarishda me’moriy obidalar ijodiy - ish faoliyati mazmuni asosida qurilsa;

Tadqiqot metodlari:

- *kuzatuv* – oliy ta’lim jarayonida talabalarni amaliy tayyorgarlik va mustaqil ta’lim olish faoliyatining holatini o‘rganishda;

- *nazariy tahlil* - zamonaviy ishlab chiqarishda talabalarning ijodiy-ish faoliyati o‘rganish, ilmiy tadqiqot muammosi bo‘yicha umumpedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilishda qo‘llanildi;

- *so'rovnoma va test o'tkazish* - talabalarning mustaqil ta'lim olishga munosabati, uni tashkil etishning mavjud holati hamda o'quv ishi natijalari va ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatini o'rganishda foydalanildi;

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Oliy texnik ta'limni takomillashtirish Konstepstiyasi" tashkil etadi. Shuningdek, psixologiya va pedagogikaning shaxs ijodkorlik faoliyatining mohiyati, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlari haqidagi qoidalar va oliy ta'lim pedagogikasining zamonaviy nazariyasi tashkil etadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- 1.Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilish
- 2.Buxoro me'morchiligini o'rganish
- 3.Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarini tasviriy san'atda aks ettirilishi
- 4 Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi

Ilmiy yangiligi:

- 1.Markaziy Osiyo xududidagi tarixiy yodgorliklarning tahlil qilindi
- 2.Buxoro me'morchiligini o'rganildi
- 3.Markaziy Osiyo me'morchilik obidalarini tasviriy san'atda aks ettirilishi
4. Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi chizishda amaliy foydalanish usullarini ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan nazariy xulosalardan oliy ta'limi tizimida talabalarni amaliy tayyorgarlik mazmunini modernizastiyalashda, ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va samaradorlashtirishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ishlab chiqilgan amaliy-uslubiy materiallardan tasviriy san'at bo'yicha talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda qo'llash mumkin.

1.1. O'zbekiston me'morlik san'ati

O'zbekiston xalqlarining tarixini, qadriyatlarini, ilm fan va madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi

Prezidentimiz I.A. Karimov, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak».1 Shu maqsadda, respublikamiz hukumatining qator hujjatlari vatanimizning har tomonlamajahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahongamashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishgakatta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yil «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlartayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagiko'p asrlik an'analari, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Me'morlik - kishilik jamiyatining eng qadimiy ilmiy, amaliy va madaniy faoliyati bo'lib, u inson kamolotining yorqin yo'lini ifoda etadi. Me'morlik - asosan uy-joy qurilishi bilan bog'liq bo'lib, uning qonun-qoidalarini va tarixiy-taraqqiyotini o'rganuvchi fandır. Ma'morlik kishilik jamiyatini ijtimoiy-maishiy, g'oyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, turar-joy va mehnat faoliyati uchun binoshootlari qurilishidan iboratdir. Me'morlik kishilik jamiyati shakllanishi bilan paydo bo'lib, u bilai birga rivojlandi, takomillashdi, jamiyat o'zgarishi bilan o'zgardi, u shakl-mazmun va xarakter jihatidan takomillashdi, asrlar osha o'z mazmuni bilan jamiyat talabiga javob berib keldi .

Insoniyat endi shakllanganda oddiy g'or va chaylalardan boshlagan me'morlik ilmi o'z boshidan ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm jamiyatlarini kechirib, o'ziga xos tartibda rivojlanib keldi. Bu davrlar me'morlik

san`ati taraqqiyoti natijasida Misr ehromlari, Missopotamiya piramidalari, YUnon akropollari, amfiteatrlari, ibodatxonalari, Rim gumbazlari, ravoqlari, Samoniy, Amir Temur maqbaralari, Samarqand registonlari, Frantsuzlarning Reymee sobarlari, Hind Tojmahali va Moskva kremli ansamblari dunyoga keldi. Bu obidalar o`rtz asrning roman, gotika, doriy, ioniy, korinf orderlarini, karniz, friz, kapiteli, kolonna, baza kabi me`morlik kategoriyalarini yaratib, bular jahonning buyuk, me`morlik obidalarini yaratishning asosiy elementlari bo`lib xizmat qildi.

O`rta asr me`morchiligi o`ziga haykaltaroshlikni va devoriy rangtasvirni olib kirdi. Oddiy loy va xom g`ishtlar bilan boshlangan me`morlik materiallari pishiq g`ishtlar, koshinlar, tosh va marmar plitalargacha ko`tarilib bordi. Jahon me`morlik san`atida yaratilgan bino va inshootlarni o`z hajmini kengaytirish bilan birga, u balandlikka va er tubiga ham o`sib bordi. Osmono`par binolar bilan birga yuz metrgacha bo`lgan chuqurlikdagi er osti qasrlari (metropolitanlar) XIX-XX asr me`morchiligining buyuk taraqqiyot yillari bo`ldi.

O`rta Osiyo me`morchiligi qariyb, 3000 yillik tarixiy-taraqqiyot yoshiga ega bo`lib, u ham oddiy loy, paxsa, xom g`isht, yog`ochlar bilan boshlanib, jahonning eng go`zal obidalarini, shaxarlarini (Oltintepa, Namoztepa, Jonbosqal`a, Qo`yqirilganqal`a, Tuproqqal`a, Teshikqal`alari, Ko`xna Urgench, Afrosiyob, O`tror, Buxoro, Samarqand, Xiva, Varaxsha kabi shaharlari) dunyoga keldi. Ularda me`morlikni eng nodir uslub va qoidalarini ishlatildi. Geometrik tushunchalar, ritm, ohang, proporsiya, kompozitsiya kabilarni Abu Nasr Forobiy (873-950) me`morchilikda qo`llanishi haqida bundan qariyb 1000 yil avval o`zining qonun-qoidalarini yaratib berdi. Me`morchilikning geometrial qonunlari haqida Forobiy 10 ta kitobdan iborat asari uzoq yillar Evropada me`morlar uchun qo`llanma bo`lib keldi. Me`morlik ilmi O`rta Osiyoda ancha yillar muqaddam fan sifatida boshlangan. Ammo qurilgan obidalarining me`morlarining nomi va familiyasini yozdirishmagan. Lekin bechora me`morlar o`z nomlarini o`z asarlari mazmuniga singdira olganlar. Ular mutaxassis nazariyotchi-me`morlar ilmi bilan asta aniqlanmoqda.

Buxorodagi Kalon minorasini Usto Baqo tomonidan 1127 yilda qurildi. Jarqo'rg'on minoraoini 1108 yili me'mor Ali Seraxoiy tomonidan qurilgan. SHaxrisabz Oqsaroyini Muxammad Yusuf 1400 yilda, Go'ri Amirni Muhammad Isfaxoniy kabilar va umuman o'rta asr o'zbek me'morchiligida SHamsiddin, Zayniddin Buxoriy, Badiriddin Samarqandiy, Ali Nafasiy, Ustod Faxrali, YUsof SHeroziy, Usta Siddiq kabi me'morlar katta ijod qildilar.

SHo'rolar davrida O'zbekiston me'morchiligini asosan Rus me'morlari olib bordilar. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Buxoro kabi shaharlar me'morchiligida hozirgi zamon me'morchiligi yutuqlari qo'llanildi. Bu davrda Evropa me'morchiligi ta'siri ancha kuchli bo'ldi. So'nggi yillardagina milliy uslublar qo'llanila boshlandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy me'morchiligimiz qayta tiklana boshladi. Mamlakatimizning shahar va qishloqlarida bunyod etilayotgan ko'p qavatli binolar o'z chiroyini o'zbek milliy me'morchilik an'analari bilan namoyish eta boshladi. Mustaqillik yillarida R.SHokirov, YU. Xoldaev, A.Turdiev, R.YOqubov, F.Tursunov, V.Akopdjanyan, N.Valieva, N.Bandeladze kabi me'morlar ijod qilmoqdalar.

O'zbekistonda san'at va madaniyatning rivojlanishi o'zining qadimiy tarixiga ega. U bir necha asr davomida va turli bosqichda san'at, madaniy merosimizni boyitdi. Bizgacha etib kelib, xozirga Parijdagi milliy kutubxonada saklanayotgan, XIX asrda mansub Rashid-ad-Dinning "Maqolalar to'plamiga" ishlangan miniatyura (mo'jiz san'at) portretlari O'rta Osieda qadimgi tasviriy san'at asarlari xisoblanadi.

XIV asrda kelib Samarkandda Amir Temurning "Bogi Shamol", "Bogi - Dilkusho" saroylari devorlariga, xarbiy yurish, jang va ov marosimlarida Temurni o'z kanizaxlari, Amir, shaxzodalari bilan o'z davrining miniatyurachi rassomi Axmad-Bogi-Shamol tomonidan tasvirlangan.

O'rta Osie miniatyura san'atini qo'llab rivojlanishi XV asrda boshlanadi. XV asrni ikkinchi yarmida Xirot Xusayn Boyqaro saltanatida ulug o'zbek shoiri Alisher Navoiy raxnamoligida taraqqiy etgan madaniyat o'chogida aylanadi.

Xirot adabiet va san'at namoendalari ichida K. Bexzod erqin yulduz bo'lib erqiradi.

Ulug miniatyurachi musavvir o'z zamondoshlari: Sulton Xusayn Boyqaro, Shayboniyxon, shoirlar Jomiy, Xatefi, Qabi larn ajoyib portretlarini chizib bizlarga meros qilib qoldirgan.

Portretlar chuqur ruxiy xolatlari bilan ajralib turadi. Sulton Xusayn Boyqaro portreti tashqi qiyofasi xarakterli xaqida Bobur o'z xotiralarida shunday tariflaydi: U ma'noli qarab turgan, maxobatli, gavdasi kelishgan ba misoli sher, berilgan pasti ingichka. U sergap, xushchakchak Xurosonda 40 yil davomida davlatpanox bo'lgan, Bexzod O'zbek xoni Shayboniyxon portretini 1507 yil Xirot olingandan keyin yaratdi. U ulug sarkarda davlat arbobi, ilmli olim, adabiyot va san'atni nixoyatda uluglaydigan shaxs edi.

Xon kalta engil oddiy oddiy Xirot xalat boshida salla, chordona qilib o'tiribdi. Ogir vaznli, to'gri tizzasida yuz qiyofasida matonatli kalta galb egasi siymosida tasvirlangan.

Bexzod portretlari yaxlit ranglar bilan tasvirlangan, Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari tasvirlangan. Chiziqlarni aniq va plastik tuzilish xususiyatlari Shayboniyxonni qudratli elka va gavda qiyofasini ifodalab beradi.

Shayboniyxonni portretida intererdagi siyoxdon, kitob, kamchin, katta ong barmogidagi uzun qabi predmetlar tomoshabinga ulug sarkarda qiyofasini ochib berishga, boyitadi.

Kamoliddin Bexzod o'z asarlarida o'sha davrda portret miniatyura san'ati cho'qqizga erishdi. Xusayn Boyqaro karorgoxida miniatyura san'atida boshqa rassomlar xam ijod qilgan. Tarixchi Xondamiz 1498 yil Qosim – Alini asrimizning qaymoqlari, nozr asar mualliflarining sardori deb baxolagan edi.

U san'at sir-asrorining Xusayn Boyqaro kutubxonasida egalagan edi.

Shaybonyxon saroyida bexzodning qobiliyati shogirdlaridan biri Maxmud Muzaxxib (Muzaxxib Oltin bilan bezovchini anglatadi) o'z ustozidan eng yaxshi fazilatlarini tasviriy vositalarda yaxlit ifoda etishn o'rganadi. Uning dastlab xammaga ma'lum A. Navoiy portret (XVI) misol bo'lishi mumkin.

Mo'ysafed yoshlardagi shoir, xassoga tayanib turgan xolda tasvirlangan.

“Men keksaysam xam tanam tetik mening so'zlarim xanuz kilich qabi o'tqir” degan edi Alisher Navoiy.

XVII-asrda bir xil o'rta Osiyo rassomlari o'zi vatanidan uzoqqa miniatyura san'atida an'analarini davom ettirdilar.

Rassom Davlat Muxammad Xindistonga boburiylar saroyida sulton va ularni bilalarini, saroy amirlarini, shoirlarining portretlarini yaratdi.

Shu davrda Xindistonda Muxamad Murod Samarkandiy Bobur saroyida ijod qilib, portret ustasi nomini oldi.

Miniatyurachi rassom tashqi dunyodagi xaqiqatni – kuzatib xayyotni tasavvurlari asosida kompozitsiyaning ma'lum qonun qoidalariga amal qilgan xolda asar yaratadi.

Shuni ta'qidlab o'tish kerakki, O'rta Osiyo va O'zbekiston xalqlarini o'tmishda qoldirgan boy madaniy va estetik merosiga qaramay, tarixiy ob'ektiv sharoitlar sababli realistik tasvir san'at o'z shaklini topmadi.

XIX – asr 60 – yillari o'rta Osiyoda, rus ilgor realistik san'ati o'z ta'srini qo'rsata boshladi. Tashrif buyurgan rassomlar o'z asarlarida erli halq va tabiatni tasvirladilar.

Turkistonda birinchi bo'lib ijod qilgan rassomlar ichida “Turkiston turkumi” suratlarini yaratgan ijodkor V. Veremagin xayetni kuzatuvchi sifatidir etnografik xayet tarzini chuqur o'rganib etyud va eskizlar bajarib natijasida xar xil mavzusida asarlar yaratadi. Uning “Balogatda etmagan bola savdosi”, “Zindon”, “Naqshbandlar” shular jumlasidandir.

Uning tarixiy janrdagi yaratgan eng katta asari “Tantana qilmoqdalar”, deb nomlanadi “Registon maydonida bo'lib o'tayotgan bu marosimda mustaqillikka qarshi yurish qilgan kuchlar ustidan qozonilgan g'alaba tantanasi o'z ifodasini topgan”.

Kompozitsiya jixatidan ko'p figuralari ko'p planli bu asarda oddiy fuqaro darveshlar, oddiy yurboshi sarbozlar, ularni bo'lib o'tayotgan tantanada psixologik

munosabatlari, milliy liboslari aks etgan quyoshning yorug' shu'lada samarqand tabiati iliq gammaga tasvirlab berilgan.

O'zbekiston zamonaviy realistik tasviriy san'atida asosan XX asr boshlarida O'zbekistonda kelgan rus rassomlari tomonidan asos solindi. Birinchilar qatorida M. Kursin, P. Bure, I. Kazakov, A. Yusupov, N. Rozanov qabi rassomlarni aytish mumkin.

1981 – yili Samarqandda, 1919 yilda Toshkentda Turkiston o'lka rassomchilik maktabi tashkil topdi, boshqa rassomlar qatorida A. Volkov eshlarga dars berdi. Samarqandda esa O. Tatevosyan rahbarlik qiladi.

O. Tatevosyan rassom sifatida 20-yillarda tanildi. U o'zini manzarani, natyurmort, portret, maishiy janrlarda sinab qo'radi, va asarlarida sharqni o'zicha talqin qildi.

Rassom shaxar tor qo'chalarini qo'rib, masjid-madrasalarga, xonadonlarga kirdi, bozordagi shovqin – suron, savdo – sotiq bilan band, ranglarga boy libosdagi odamlar xayotini kuzatdi. Ularni quyosh nurida tovlangan sherlarini mashaqqatli mexnat evaziga yetishtirilgan meva, noz – ne'matlarning rang – barangligi uning ko'zini qamashtiradi, yangi ijodga ilxom bag'ishlaydi.

U ilk bor “Xivali qiz” suratini yaratdi. Peshin payti, charog'on qush nuriga gard cho'milgan Xiva xovlilarining birida o'smir qiz charx o'tiribdi. Uning yengida quldor ko'ylak, boshida chiroyli do'ppisi.

Qo'zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo'llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi, surat bo'yuoqlarining yorqinligini, uni erkin uslubda ishlaganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Uning egnida quldor qo'ylak, boshida chiroyli do'ppisi qo'zlarini diqqat bilan boqishi, boshini sal egilganligi, qo'llarning xarakati, uning berilib ishlatganidan dalolat berib turibdi. Surat bo'yoqlarining yorqinligi, uni erkin uslubda ishlanganligi tufayli, asardagi milliy koloritni yanada chuqur xis etamiz. Bu asarni O'zbek tasviriy san'atida birinchi realistik ijod namunasi olish mumkin. O'z paytida u Tretyakov davlat galereyasining doimiy ekspozitsiyasining o'rin olgan edi.

Rassom 30 yillarda katta tematik suratlar ishlash uchun etyudlar, xomaki chiziqlar sifatida materiallar to'pladi.

Uning "Xujum" nomli pillakashlik fabrikasi "Registonda 8- mart" polotnalari shular jumlasidandir. U o'z ustozlari D. Kardovskiy, I. Repindan o'rgangan xatni chuqur aks ettirish, badiiy obrazlar yaratish an'analari davom ettirib o'ziga xos ranglar "Politra"sini yaratadi. "Uzum uzish" yoki "Dugonalar" kartinasida qo'p millatlik vatanimizda xalqlar do'stligi goyasi obrazi ochib berilgan. Janubning saxiy kueshi, guzal farovon turmushi asar kompozitsiyasida moxirona xal etilgan.

Qalin novda va barglarni orasidan tushgan quyosh nurlarida pishib yetilgan uzum bog'lari manzarasi fonida ikki qiz tasvirlangan. Biri o'zbek, ikkinchisi rus qizi, ular kompozitsiya ma'naviy markazini tashkil etadi.

Asarning personajlari, zavq bilan tomosha qilayotgan, qizlar xam, bolalar xam keksa bog'bon xam bir oila a'zolaridek ko'rinadi.

Tasvir yorqin bo'yoqlarda ishlangan. Unda xavo qo'p bo'lib, serquyosh O'zbekistonning go'zal tabiati juda nafis ranglashga aks ettirilgan.

O. Benkov, xayotni ko'p ko'rgan, ishi ulug' odamlar suratini chizishni yoqtiradi. Uning eng yaxshi yaratgan asarlaridan biri "Ilgor kolxozchi portreti" edi. Unda sochlariga oq o'ralgan, mexnatdan chiniqqan insonning obrazi aks ettirilgan.

1945 yili P. Benkov safdoshi – shogirdi Z. Kovalevskaya bilan bir – birlarini portretlarini chizishdi.

Portret ulug' gammada ishlangan bo'lib, ayni ijod pallasini aks ettirgan. Samarqandda o'tgan xayotni tematik kompozitsiyalar maishiy kartina va portretlarga boy bo'ldi. U o'zining 20 yillik ijodida "Bibixonim"da baxor, "Shaftoli gulladi", "Tokzorli xovli" kabi ajoyib manzaralarni yaratdi. Biz yuqorida ko'rib chiqqan asarlardan P. Benkovning naqadar zabarbast rassom bo'lganligida ikror bo'lamiz.

Uning ijodi pedagogik faoliyat bilan chambarchas bog'langan. U Samarqand rassomchilik bilim yurtida umrini oxirigacha eshlarida saboq berdi, tasviriy san'at sirlarini o'rgatdi. U ajoyib ijodkor eshlarni tarbiyaladi.

Shular orasida O'zbekiston xalq rassomlari Lutfulla Abdullaev, Malik Nabiev, Abdulxaq Abdullaev, z Kovalevskaya O'zbekistonda xizmat ko'rsatilgan san'at arboblari Yu. Elizarov, R. Temurov, V. Fadeev rassomlar A. Roziqov, R. Chernishev va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Uning pedagoglik maxoratining siri, yuqori darajali qobiliyati, chuqur bilimida, yoshlarga bo'lgan mexrida edi. U o'z o'quvchilarda kundalik xayotni sezish uni go'zalligini ko'ra bilish va bu go'zallikni o'z asarlarida aks ettirishni o'ktiradi. Naturani to'g'ri anglab chizishni, fikr yurgazishni, xotiradan chizish, kuchaytirishni talab qildi. Muntazam ravishda soya – erug ranglarni o'rganishini chizib qo'rsatadi. Shogirdlar xatolarini qo'rsatib, bilan professional maxoratini o'rtirishga undardi. Benkov Eshlarda san'atda bo'lgan ijodiy qabi muxim qimmatli fazilatlariga ega edi. Samarqandda rassomchilik bilim yurti shakllanishida Benkov o'z tajriba bilimini ayamadi. 1936 yili Leningraddagi sobiq ittifoq qo'rgazmasida Benkov uni o'quvchilarning ijodi namunalari yuqori baxolar oldi.

Bu ajoyib inson, o'z asarlari qabi erug, saxovatli edi. Shu yillar Respublika rassomchilik maktabini B. Xamdamiy bilim yurtlarini A. Toshkenboev, I. Abdullaev, A. Rozikovalar, Moskva, Leningrad, Penzabilim yurtlarini I. Ikromov, A. Sa'diy, O'. Tansiqboevlar tamomlab ijodga yo'llanma oldilar.

Ularning ijodiy maxorati "To'y (1932)", B. Xamdamovning, I. Abdullaevning "Paxta terimi (1931)", Roziqovning "Maktabga (1932)" asarlarida namoen bo'ldi.

Akram siddiqiyning "To'y" kartinasi katta gulli so'zana kontrast ranglarda, kompozitsiya tuzilishi amaliy san'at elida tasvirlangan. U uzbek xalk amaliy san'atini yaxshi o'rgangan edi. Realistik san'at yo'lidagi bu asarlarning yaratilishi Respublika badiiy xayetda muxim voqea bo'ldi.

Ijodiy izlanishni A. Siddiqiyda yaqin bo'lgan O'. Tansiqboevning erqin ranglar tizimida "Choyxona" (1934) kartinasi yaratdi. B. Xamdamiyning tingdoshi rassom A. Toshkentboev mexnat, kundalik xaetni voqealari mavzusidagi asarlar yaratdi. 1934 yili bularni yaratgan kompozitsiya asarlari qo'rgazmasida yaxshi baxolandi. P. Benkov bilan Samarqand rassomchilik maktabdida eshlarda

dars bergan Z. Kovalevskaya “Teatr lojasida” nomli ajoyib asar yaratdi. Teatr lojasida oʻtirgan oʻzbek qizlarni nigoxlarida xayajon, goʻzallik xis tuygularini qoʻramiz. Orqada eʼtibor bilan binoklda kuzatayotgan keksa erkak va ayolni xotirjam qarashlari, qoʻl xarakatlari lirik xolatini koʻrish mumkin.

Rangtasvir kompozitsiya jixatidan oʻziga xos milliy koloritda ifoda etilgan. P. Benkov, A. Volkov qoʻlida oʻqigan B. Xamdamiy, I. Abdullaev, R. Temurov, R. Nasritdinov, A. Raximov, A. Toshkentboev, A. Roziqovlar, oʻz ustozlarini yaxshi anʼanalarini davom ettirdilar, mazmun, gʻoyalarni kengaytirdilar. Ayniqsa Samarkand rassomchilik bilim yurtini bitirgan I. Abdullaev dastlabki “Paxta terimi” (1931 yil) kartinasi bilan tomoshabin va sanʼtshunoslar fikrini qaratgan boʻlsa, keyinchalik etuk rassom sifatida murakkab kompozitsiyasi asoslarini yaratdi.

Ayniqsa “Yosh shoir xuzurida” kartinasida kompozitsiya ustasi ekanligini tasdiqladi.

Yigit va qizlar esh shoirning sherlarini eshitmoqda. Zamonaviy xonada shoir gavdasi aniq tasviri kompozitsiya markazini tashqil etadi.

Qoʻlini qoʻtarib tantanali xayajon bilan sher misralarini oʻqimoqda.

Eshlarning bilimga chanqokligi, mexnatga mexr bilan intilishi ifodalangan.

Uning “Mulla Toʻychi Toshmuxammedov” portreti, “Frontdan qaytish”, “Quruq er ovchilari”, M. Nabiev, S. Muxammedov, X. Raxmonovlar bilan xamkorlikda yaratilgan poyafzalchi “Ubay Raxmatullaev brigadasi” asari eng yaxshi sanʼat asari sifatida Oʻzbekiston Davlat sanʼat muzeyida saqlanmoqda. Yuqorida qayd etib oʻtilgan rassomlar 50-yillarda Toshkentdagi Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida eshlarga dars berdilar, rasm chizish va kompozitsiya asari yaratishni oʻrgatdilar.

40 – 50 yillarda shular bilan bir qatorda rassomlar eshlarga tasviriy sanʼat sirlarini oʻrgatdilar. Maishiy janrda qoʻplab asarlar yaratgan rassom N. Kashinadir. Uning “Doira cholaetgan qiz” (1945 yil) “Tushki tanaffuz” asarida insonni mexnat bilan barxaetligi, uni toza xavo, oftob nurlaridan tabiatdan zavqlanaetgani oʻz aksini topgan.

Asar kompozitsiyasi, rang koloriti, milliy ruxda, insonni zamonaviy xislatlari, kompozitsiyani tuzib vositalari namoen bo'lgan. Eshlarga metodik tavsiya vazifasini bajaradi.

1947 – yili Ch. Axmarov, Toshkentdagi Navoiy nomli opera va balet teatri binosi foyesi devorida A. Navoiyning “Farxod va Shirin”, “Layli va Majnun” asariga bagishlangan maxobatli rangtasvir asarini ishladi. Asosiy mavzu afsona eki bo'lib o'tgan voqealar bo'lishiga qaramay, tipajlar, ularni aniq o'xshashligi, murakkab kompozitsiya echimida topilgan.

Tasvirdagi odamlar xajmsiz aniq chiziqlarda va engil nozik ranglar tusida tasvirlangan.

“Monumental” panno mavzusida A. Navoiyining “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun, asosida “Farxod va Shirin”, Etti guzal, Etti sayera, Iskandarnoma, Layli va Majnun,” Iskandarning kurilishini kelib qo'rib kompozitsiyaning asosiy negizini tashkil etadi. Shirin kanizaxlari bilan Farxodga nigox tashlab uni qilgan jasoratiga ta'zim qilayotgan vaqti ifodalangan. Asarning muvaffaqiyatli chiqishida rassomning A. Navoiy dostonlarini yaxshi sinchiklab o'rganganligi kata yordam bergan. Bu asar uchun Ch. Axmarov 1948 yili “Davlat mukofoti”ga sazovor bo'lgan edi.

50 yillarda rassom Moskva, Kazan, Dnepropetrovsk, Kemerovo shaxarlarida asosan maxobatli – devoriy asarlar ustida ishladi.

1961 – yildan boshlab Ch. Axmarov ya'na O'zbekistonda ijod qila boshladi. “A'lochi qiz”, “Raxima”, “Balerina”, Rassom “Temurov portreti”, “Mukarrama Turgunboeva”, “Zulfiya” qabi portretlarni yaratdi.

Ayniqsa shoira “Zulfiya” portretlarida nozir chizgilar bilan gavda va qo'l xolati, liboslar o'ziga xos go'zal xolatda ifodalangan.

Shoirning samimiyligi, yoqimtoy nigoxi chuqur poetik ijod soxibu ekanligi sezilib turadi. Ch. Axmarov zamonaviy o'zbek ayolini ziyyo tarkatuvchi ma'naviy boyligini, ichki go'zalligi ochib bergan. Chingiz Axmarov qo'a yillar davomida K. Bexzod nomli Toshkent milliy rassomchilik va dizayn institutida kafedra mudiri, professor bo'lib ishladi.

Qo'plab o'zbek "Monumental"chi rassomlarni etishtirib chiqardi va o'ziga xos maxobatli kompozitsiya san'ati maktabini yaradi, 1953 – yili repin nomdagi Leningrad, badiiy akademiyasi institutini R. Axmedov, N. Qo'ziboev, T. Oganegov, m. Saidov, V. Zelikov, muxina nomdagi oliy san'at bilim yurtini V. Smakin, V. Sosedovlar(1954-1955) yillar V. Shukurov nomdagi Moskva rassomchilik institutini Yu. Elizarovlar tamomlab yangi kuch va ishtiyoq bilan san'at olamiga kirib kelishdi. Ijod bilan bir qatorda P. Benkov nomli rassomchilik bilim yurtida yoshlarga saboq berishdi.

Shu sababli o'sha yilari bilim yurtini bitirib o'quvchilarning turli nufuzli oliy badiiy o'quv yurtlariga kirib o'qishlariga zamin yaratildi.

Ular orasida yosh va iqtidorlisi N. Qo'ziboevdir. Uning Qoraqum xavzasiga bagishlangan "Qidiruvchilar" (1953) yil diplom ishi a'lo darajada ximoya qilinib, DAK a'zolari va raisi oganson maktofiga sazovor bo'ldi va institut muzeyidan doimiy o'rin oldi.

O'zbek xalkning orzusi quruk erni ochishga otlangan xalqning shijoatli, gayrati N. Qo'ziboevning "Qidiruvchilar", "O'zboy o'zanida", kartinasida o'z aksini topgan.

Mazmun va kompozitsiya jixatidan o'ta antiqa, zamonaviy bu asarda maxorat bilan, jazirama issiqda ishlayotgan matonatli kishilar obrazini tasvirlab berilgan.

Asar kompozitsiyasida chodir yonidagi shijoatli odamlar, yuk orilgan tuyalar, maxsus qidiruv ishlari jixozlari tasvirlangan. Inson kuch – kudrati bilan tabiiy ofatlarni engib, cho'lni – bogu – bo'stonga aylantirayotgan tasviri manzarasini guvuxi bo'lamiz. Rassom xaqikatni jozibali tasvirlangan.

Kompozitsiya jixatidan mavzu va ma'no bir – biriga juda mos boglangan. Cho'l oftobida toblangan yaratuvchi inson obrazi asarda eng muxim vositasidir.

1954 – yili Toshkent san'ati institutida rassomchilik fakulteti, 1955 – yilda nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetida "Badiiy grafika" fakulteti tashkil topdi.

Bu erda dastlab O. Tatevosyan, V. Podgurskiy, R. Axmedov, A. Krivonos, N. Qo'ziboev pedagogika institutida Yu. Elizarov, G. Oganegov, V. Yurovskiyalar tasviriy san'at asoslaridan yoshlarga dars berishdi.

Ayniqsa R. Axmedov tashabbus qo'rsatib, qo'p mehnat qildi. Shijoatli, olov qalbi bu inson keyinchalik butun umrini O'zbekiston tasviriy san'at maktabini tashqil topib, rivojlanishiga bag'ishlanadi, samarali mehnati va ijodi uchun nufuzli davlat mukofotlari, oren medallariga sazovor bo'ldi.

Rossiya badiiy akademiyasi muxbir a'zosi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasini akademigi professor Raxim Axmedov institutda ijob laboratoriyasini, tasviriy san'at bo'limlarini ochdi, keyinchalik aspirantura tashqil qildi.

Uning maqsadi yosh ijobdorli rassomlarni tarbiyalab, o'qitish va O'zbekiston tasviriy san'atini rivojlantirishdan iborat edi.

Musavvirning "Ona o'ylari", "Tong", "Sora Axmedova" portreti, "Lola" portreti "Oqtoshga baxor", "Surxandaryolik ayol" asarlarida jozibali ranglar vositasida o'zbek xalqining o'tmishi, ichki dunyosini, xis tuygu, orzulari o'z ifodasini topgan.

Raxim Axmedov dastlab portret soxasida juda berilib ijob qildi. Zamondoshlarni betakror obrazini, mazmun goyalarni ifodalashda o'ziga xos badiiy til topdi. Portret yaratganda nafaqat uni tashqi qiyofasiga, ranglarni uygunligiga, balki uni chehrasidagi insoniy fazilatlarni ochib berishga intilardi.

Shuning uchun mehnatsevar xalqning milliy xususiyatlarini, o'zida mujassamlashtirgan ayollar, o'spirin – yoshlarni obrazini yaratishga qaratilgan edi.

1.2.Me'moriy bezaklarining shakl va ranglarini ramziy ifodasi

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobiga yozilgan so'z boshida o'qtirganidek "O'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdolarimizning me'rosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashash" mustaqil respublikamiz har bir fuqarosining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lib qoldi. SHuning uchun Vatanimiz ilmi, madaniyati va qadriyatlari tarixini manbalar asosida chuqur, xolisona o'rganish va yoritishga bo'lgan intilish yaxshi samara bermoqda.

Qadimdan ajdodlarimiz yashayotgan maskanlariga, devoru toshlariga, idish—tovoqlariga ov jarayonlari, jangu-jadallar, bazmlar, yozuvlar, tantana marosimlar, turli hayvon, qush hamda o'simlik va naqshlar bilan bezab kelganlar. Bundan tashqari bezaklarni yanada ta'sirchan kuchini oshirish uchun xalq hikmatlari, ulug' allomalarning pand-nasihatlari, turli ramziy ma'noda ifodalab kelganlar. Ular go'zallikni yaxshi ko'rganlar. SHuning uchun go'zallik orqali insonlarga voqealiklarni tezroq yetkaza olganlar.

Bulardan tashqari fikr almashuv vositasi sifatida ramziy ifodalar, muayyan shakl va belgilarning muomalaga kiritilishi natijasida yozuv kelib chiqqanligi qadimdan ma'lum.SHuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov "Milliy timsollar va ramzlarning har biri milliy g'ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri-katta bir darslikdir" deb ta'kidlab o'tgan edi.

Xo'sh ramz nima? "Ishora qilmoq" so'zidan olingan bo'lib tabiatni, voqealikni, hayotdagi quvonch va tashvishlar, do'st va dushman, ezgulik va yovuzliklarni chiziq, rang va shakllar orqali ifodalashdir.

Hozirda ramziylik haqida va naqshli bezaklarni o'qish alifbosi qiyomiga yetkazib tuzilmaganligi, "Ramziylik lug'ati" hamda "Ramzlar entsiklopediyasi" O'zbekistonda tuzib chop etilmaganligi ko'pgina qiyinchiliklar tug'dirmoqda. CHet ellarda esa deyarli amalga oshirilib bo'lingan.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Kamoliddin Behzod, Maoniy, Firdavsiy, Umar Hayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim fuzalolarimiz, naqshdoshlarimiz binolarni kishilar hayolini o'ziga tortuvchi, tabiatning go'zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni go'zallik bilan yaqin do'st, birodar bo'lishga undaganlar.

Alisher Navoiy ham asarlarida musavvir va naqsh san'ati ta'rifida aytilgan zavq va ehtirosga to'liq satrlarni ko'p uchratamiz.

Alisher Navoiyning zamondoshi tarixchi Zayniddin Vosifiy "Bados-ul vaqos" asarida qiziq bir hodisani habar qiladi. Mashhur musavvir Behzod yangi suratni Alisher majlisiga keltirgan. "Suratda tasvirlanishicha, orasta bog'cha, turli-tuman daraxtlar... Xo'shsuvrat qushlar, har tarafda ariqchalar... Ochilgan zangori gul turlari va uning orasida Mir (Alisher)ning yoqimli xo'shsuvrati.

U asosga tayangan. YOnida sochiq, zar to'la taboqlarni qo'ygan. Hazrati Amir ul suvratni: mushohada va mulohaza qildi: ul nafis sahifa bog'lar ichra latif va shodlik gullari va huzur (bag'ishlovchi) daraxtlar bilan bezatilgan.

So'ngra Navoiy majlisda hozir bo'lganlarga qarab dedi: Azizlarning hotiriga bu muhim ustoz va Huroson ahlining mashhurlaridan bo'lgan Mavlono Fasixiddin dedi:

- Mahzumlar. Ko'z oldimdagi bu ochilgan ra'no gullarni qo'l cho'zib uzsamu dastorimga sanchisam?

Mirning ulfati va do'sti Saxib Dodo:

- Menda ham shunday istak bor edi. Ammo, qo'l cho'zsam daraxtlar ustidagi qushlar hurkib, uchib ketmasin deb andisha qildim,- dedi.

Hurosonning xushtabiat ahlidan va peshvonlaridan bo'lgan hamda Mir bilan doimo tegishib qochirib so'zlar aytib yuradigan Mavlono Burxon:

- Men mulohaza bilan qo'limni tortib, tilimni tiymoqchiman: agar so'z qotsam, hazrat Mir arazlaydilar va yuzlarini burishtirib, qoshlarini chimiradilar-dedi.

Nozik tabiatli Mir unga "Latiftarish" deb laqab qo'ygan hurosonlik hushomadgo'y mavlono Badaxshiy bo'lsa:

- Ey mavlono Burxon, agar beadablik va gustoxlik bo'lmaganda suvratdagi Mirning qo'llaridagi hassani olib boshinga solar edim,- dedi. Hazrat Mir:

- Azizlar yaxshi so'zlar aytishdi va ma'no durlarini ma'qul sochishdi. Agar mavlono Burxon "noma'qul ishini ravo ko'rmasalar va dagallik qilmasalar, men taboqlardagi oltinlarni do'stlarning boshidan sochmoqchi edim,- dedi"¹.

Ayniqsa Amir Temur shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug'vor qilishga intilgan, tosh hamda g'ishtdan keng va ravon kuchalar qurdirgan. Kuchalarda turli hil hunarmandlar uchun do'ppichilik, misgarlik, zargarlik, beshikchilik, pichoqchilik, bo'yrachilik, savatchilik, gilamchilik rastalari barpo ettirgan. Temur Parij, Bog'dod, Damashq SHeroz, Sultoniya, Kohira nomi bilan ataluvchi qishloqlar, Bog'i nav, Bog'i bihisht, Bog'i baland, Davlatobod Saroy bog'i, Bog'i nav, Bog'i chinor kabi bog'i rog'lar, ajoyib, ulug'vor saroylar qurdirgan.

Jahongir fath etgan o'lkalardan jalb etilgan ko'plab me'mor -muhandislar, g'isht teruvchilar, o'ymakorlik naqqoshlik ganchkorlik san'ati ustalarining ijodiy mehnati, tajribasi Temur poytahtini juda muhtasham, go'zal, savlatli binolar bilan bezagan.

Prezidentimiz IA.Karimovning Amir Temur haqida shunday degan edi: "Amir Temur tarihdagi eng buyuk shahslardan biri. Ajablanarliligi shundaki, XIV asrning eng yorqin va mo'tabar zotning buyukligi keyinchalik har turli afsonalari o'ydirmalar girdobida qolib ketdi.

Hayriyat haqiqat g'olib keldi. Amir Temurning yirik davlat arbobi, o'rta asr islohatchisi, jasur adolatpesha, fan va madaniyat homiysi sifatida siymosi har turli mafkuraviy ta'sirotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay asrlar osha yashab keldi.

Amir Temur ma'naviy merosining o'zagi - Samarqanddir. Afsona shahar Jahon me'morchiligining durdonasi. Bunyodkor inson teran zakovatli va cheksiz hayolatining noyob ijodi namunasi.

Ma'naviy boyliqo'y-hayolarning soflik va ahloqiyligi, nafislik O'zbekiston halqining yaratuvchilik tabiati asrlar davomida Guri Amir, Registon, SHohizinda, Toqizargaron, Bibihonim masjidi, Ulug'bek rasadhonasi va boshqa ko'plab jahon ahamiyatiga molik durdonalar nafosati ta'sirida shakllanadi".¹

Samarqand sug'dining go'zalligi va latofatli shu qadar mashhurki, bu haqda bahs ochishning hojati yo'q deydi: Hofizi Abru.²

Temurdan keyingi hoqonlar ham shu ishni davom qildirdilar.

"1956 va 1970 yillarda SHerdor madrasasining maydon tomonidagi peshtoq ostini qazish paytida maydon qadimiy sathining payrahasi (trotuari) topildi. Nihoyat 1976 yilda bu maydondan 2 metrdan ortiq to'proq olindi. Maydonning qadimiy sathi ochildi. Ana shu qazilma vaqtida Mirzo Ulug'bek madrasasiga kirishdagi asosiy ravoqning eniga teng va bino poydevoridan olti metr nariroqda sun'iy hovuz topildi. Hovuz devorlari erdan bir metr balandlikda bo'lib, suv o'tmasligi uchun mahsus qirindi qorishmasi bilan to'ldirilgan.

Amir Temur jahon tarixida. Ma'sul muharrir: H.Karamatov, mualliflar jamoasi: S.Saidqosimov (rahbar), A.Ahmedov va boshqa.. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri.- Toshkent: SHarq, 2001-4 b.

Samarqand. (Kirish so'zi mualliflari V.A.Bulatova, G.V.SHishikina).- Toshkent: G'.G'ulom nomli adabiyot va sa'nat nashr, 1986-19 b.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bundan sun'iy hovuzga har doim nihoyatda tiniq suv to'ldirilib qo'yilgan va har hil rangdagi chiroyli baliqlar tashlab qo'yilgan. Bizningcha bunday oqilona usulini yaratishdan maqsad: avvalo koshinlar quyosh ta'sirida qizib chaqnamasligi bo'lsa kerak. CHunki suvning salqini jazirama quyosh ta'sirini ozaytirishga katta yordam qiladi. Bunday tadbirning yana boshqa tomoni shundaki, quyosh ta'sirini kamaytirishga katta yordam qiladi. Bunday tadbirning yana boshqa tomoni shundaki, quyosh nuriga qarama-qarshi turgan peshtoqdagi koshinlar yaraqlashining aksi hovuzga tushib, ajoyib tasvir namoyon bo'ladi. SHunday qilib quyosh peshtoqdan o'tgunga qadar uning aksi peshtoqqa ishlangan naqshda, naqshdagi aksi esa hovuzdagi suvga tushib, go'yo erda ham, peshtovda ham quyosh yaraqlab chiqib turgan manzarani

kashf etadi, lekin bu tadbirdan ham ko'ngli to'lmagan hoqon quyoshning jazirama issig'i koshinlar jilosiga ta'sir etmasligi uchun peshtoqning eniga barobar qilib zamonasining chiroyli matolaridan jilt hozirlatib, ertalab quyosh chiqishidan peshingacha peshtoqni uratar va peshindan keyin oldirib qo'yar ekan".

Dunyoga eng kuhna shaharlardan biri Samarqandning eski shahar markazi, ya'ni Registonda savlat tukib to'rgan SHerdor madrasasiga bir nazar solaylik. Uning peshtoqlari, bahaybat gumbazlari va chiroyli minorlari, rang-barang sirli koshinlari umamda nafis, hashamatli, dab-dabali ishlangan jim-jimali qoplamasi kishini hayratga soladi. Ushbu Madrasa boshqa me'moriy yodgorliklar singari o'z mazmuniga va tarihiga ega.

Samarqandning kuksida qad ko'targan Registon shahriga kelgan. Har bir sayyohning diqqatini o'ziga jalb etadi. Registonda 3 ta mahobatli Madrasa joylashgan. Ulardan ikkitasi 35 metrdan ham baland. Buni hozirgi 12 qavatli imoratlarimizga barovar desa bo'ladi.

Bahaybat peshtoqlar, gumbazlar va chiroyli minoralar, ularning rang-barang sirli koshinlar va jim-jimali qoplamasi nafis ishlanganligi, hashamatli va dab-dabaliligi bilan kishini hayratda qoldiradi.

Hozirgi Registondagi majmua asosan XVII asrda shakllangan bo'lib, Ulug'bek madrasasi (1417-1420), SHerdor madrasasi (1619-1636) va Tilla qori madrasasidan (1647-1660) iborat.

Registon maydonidagi Ulug'bek madrasasi, SHerdor madrasasi, Tilla qori masjid-madrasasi Samarqand me'morlari ijodiy (7 rasm) darsining nodir namuna bo'lib kelmoqda. Bu ulug' er zaminda necha-necha mutafakkir, ziyolilar, allomalar, pirlar, ustozu-shogirdlar, olimlar qadamining izi bor. Uch muborak universitetning har bir me'morchiligimiz durdonalari bo'lib hisoblanadi.

SHerdor Madrasa XVII asrning birinchi yarimida ya'ni 1619-1636 yillarda qurilgan. Uni Samarqand hokimi YAlangtush Bahodir usta mulla Abdujabbor me'mor va nakqosh boshchiligida qurdirgan va bezatilgan. Me'mor oldiga Bahodir YAlangtush hech bir narsada o'zining ulug' ajdodlaridan qolishmasligini u ziyokor ekanligini

va halqiga ziyo ya'ni ilm tarqatganligini naqshli bezaklar orqali halqda etkazish vazifasini quygan. Usta mulla Abdujabbor boshchiligida naqqosh va musavvir Muhammad Avaz Samarqandiy ishlagan. Naqqosh o'ltan peshtoq ravoqi tepasidagi bezak orqali masalani hal qila olgan. (8 rasm).

- Me'mor Madrasa peshtoqiga qo'yidagi she'rni jimjima qilib yozib bezalgan:

*"SHijoatli amir YAlangtush odil,
Kamolin mahida durlar sochar til:
Er nuqtasin osmon avjidan avfo-
Ko'tarib Madrasa ettirdi bino,
Eru ko'k ziynatin bo'ldi yalovi.
Toqisi-kamolot, aql o'lchovi.
Ko'p tirshib, ilmdan bog'lab ham qanot,
Aqlning lochini echolmas, hayhot!
Minora uchiga tashlab ham kamon,
Fikrniig darvozi chiqolmas harchand.
Toqiga muhandis berganda oroy,
Osmon barmoq tishlab, dedi: "YAngi oy!?"
YAlangtush Bahrdir kuygan chun asos,
"YAlangtush Bahodir " - tarihiga mos".*

Madrasa ikki qavatli. Bosh tarzidagi peshtoqning ikki yoniga guldasta ishlangan. Peshtoq, ichkarisiga qoshinkori bezak orasida qora zominli koshinga oq harflar bilan me'mor Abdujabbor nomi yozilgan.

Madrasa peshtoqi koshin parchalari bilan terib simmetrik qilib ramziy naqshlar bilan bezatilgan, qizg'ish - zarhal SHer nozik oq ohuni quvib ketayotgani tasvirlangan. Odam qiyofali iuyosh esa zarhal yog'du bilan hoshiyalangan. Ular atrofiga naqshu nigorlar chizilgan.

Qizig'i shundaki, ko'pgina olimlarimiz o'zlarini asarlarida "Islom dini avj olgan bir davrda, garchi har qanday jonzot, hususan, odam tasviri qat'iyan man

etilgan deb yuritganlar. Vaholanki muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda va hadisi sharifda" man etilgan joyi yo'q... Faqat sanamlarni yasash taqiqlangan. SHuning uchun biz tirik mavjudotlarni tasvirlash man etilgan degan fikrga qo'shilmaymiz.

Sababi shundaki saqlanib qolgan tarixiy hujjatlar bu fikrni inkor etadi XV-XVII asrlarning turli adabiy va tarixiy asarlari masalan, (XV-XVII asrdagi "SHohnoma" ning juda ko'p qo'lyozmalari, XV asrdagi "Zafarnoma va boshqalar) dagi miniatyuralar dunyoviy hayot, mehnat va manzaralarini tasvirlaydi va devorlariga turli jonivorlar rasmi tasvirlangan, lekin yo'q bo'lib ketgan me'morchilik obidalarini guvohlik beradi.

"Me'morchilik yodgorliklarining ba'zi fasadlarida jonli mavjudotlar tasvirlangan koshinli va sirli namoyonlar hozirga qadar saqlanib qolgan. Masalan: SHahrisabzdagi Oqsaroy (1380-1405 yil) paytog'i sherlar rasmi solingan namoyonlar bilan bezatilgan. Anov masjidi (1456 yil) peshtog'ining ravog'i tepasida ajdarlar tasvirlangan timpan bo'lgan. Buhorodagi Nodirabegim madrasasi asosiy fasadining ayvoni yuqorisiga laylaklar rasmi solingan va hokazo"¹.

Usta Abdujabbor naqadar naqsh tilini, go'zallik falsafasini, ramziylikni bilgan va mustaqil ijodkor usta bo'lgan. U bunday tasvirning o'lkan bino peshtog'ida ishlanishi bilan me'mor qanday maqsadni nazarda tutgan ekan? Bu masalada hozirgacha tayin aniqlik yo'qdir. SHu haqida to'htalib o'tmoqchimiz.

Taniqli olim Po'lat Zohidov o'zining "Me'mor olami" kitobida SHerdor madrasasining bezagi haqida shunday deydi:

"Samarqandlik olim Abu Tohirho'ja XIX-asrning 30-yillarida yozgan "Samariya" kitobida SHerdor Madrasa peshtog'idagi tasvirlarni bir oz boshqacha talqin qiladi. U tasvir mazmunini musulmon astrologiyasida keng tarqalgan osmondagi yulduz burjlari bilan bog'lab tariflaydi.

Abu Tohirhujaning aytishicha, hurshid-quyosh shakli SHer burji (yulduzlar turkumi) bilan qo'shib ketgan: ohuni to'tmoqchi bo'lgan SHer hamlasini quyosh nurlarining tig'i qaytarmokda. Go'yoki nurziyo ofatni daf etmoqda. Har holda, ijodkorlar chuqur g'oyaviy fikrni ramziy tahlilda berishgani ko'rinib turibdi. Lekin

deydi: Po'lat Zohidov "hozircha, tasvirning talqini haqida boshqa biror aniq tarihiy ma'lumotga ega emasmiz"¹.

Haqatdan ham SHerdor madrasasi peshtoqidagi bezatilgan naqsh kompozitsiyasining qiyomiga chiqib talqin qilib berilmagan. CHunki naqshni o'qish tili alifbosi bizgacha etib kelinmagan. Hozirda esa naqshlarning ramziy o'qish alifbosi tuzilmagan. SHuning uchun naqsh bezaklarni o'qish masalasi muamo bo'lib kelmoqda.

Samarqandlik olim Abu Tohirho'ja "Samariya" kitobidagi SHerdor Madrasa peshtog'idagi tasvirlarni astrologiya ya'ni munajim ilmi bilan bog'liqligi degan fikri to'g'ri deb hisoblaymiz. Lekin "ohuni to'tmoqchi bo'lgan SHer hamlasini quyosh nurlarining tig'i qaytarmoqda. Go'yoki nurziyo ofatni daf etmoqda" degan fikrga qo'shila olmaymiz. CHunki tasvirga yahshilab qarasangiz yo'lbarssimon sher, quyosh yog'dusi, islmiy naqsh biri yuqoridagi alohida islmiy naqshlar ham bir hil oltin rangda berilgan.

YA'ni yo'lbarssimon sher ziyokorligini quyosh yog'dusi singari ziyo tarqatganligini, oltinsimon rangli islmiy naqshlar halqiga ziyo tarqatganlikni ramziy ma'noda aks ettirgan. Quyoshdagi qiyofa esa bularni hammasiga yaratguvchi guvohdir deb ishora qilingan..

Endi bezaklarni o'qish alifbosini o'qish masalasiga kelsak hozirda ramziylik haqida va naqshli bezaklarni o'qish alifbosini qiyomiga etkazib tuzilmaganligi, "Ramziylik lug'ati" hamda "Ramzlar entsiklopediyasi" O'zbekistonning tuzib chop etilmaganligi ko'pgina qiyinchiliklar tug'dirmoqda. CHet ellarda bu kabi ishlar amalga oshirilib bo'lingan.

O'zbekistonda ushbu muammoni hal qilish uchun naqshlarni o'qishning dastlabki alifbosini tuzdik. Ularni guruhlariga ajratib ramziy ma'nolarni quyidagi bo'limlarga bo'lib chiqdik:

1. Geometrik naqsh elementlarining ramziy ma'nolari;
2. Islomiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari;
3. Quyosh va hayvonlarning ramziy ma'nolari;
4. Buyumlarning ramziy ma'nolari;

5. Ranglarning ramziy ma'nolari.

Naqshlarni o'qish alifbosi

№	Ramzlar	Mazmuni
Geometrik maksh elementlari		
1.	Nuqta	Hayotni boshlanishi, zarraga, tangrini yagonaligi, hayotni tugaganlik va boshqalar ramzi.
2.	To'g'ri chiziq	Hayotni, to'g'ri yoki hayotni ravonligi.
3.	To'lqin chiziq	Hayotni notekisligi, oyni o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'ulikligi.
4.	Olti qirrali yulduz.	Hayotni boshlanishi va ohiri.
5.	Musbat belgisi.	Juftlik ramzi.
6.	Tik turgan holatidagi teng tomonli uchburchak.	Hayotning boshlanishi.
7.	Teskari turgan holatida teng tomonli uchburchak.	Hayotning ohiri.
8.	Teng yonli uchburchak.	YAhlit bo'lingan bo'lak qayriliq olam, dunyoning to'rt tomoni, osmon saroyi.
9.	Kvadrat.	Quyosh farzandi, abadiylik yorug'lik mustahkamlik olamning cheksizligi. Borliq er, suv, olov va havodan iboratligini bildiradi.
10.	To'g'ri to'rtburchak.	Ishonch.
11.	Romb.	Ayol ya'ni ona er, serfarzandlik.
12.	Aylana.	Olam, baht, quyosh, abadiylik insonlarni yovuz niyatidan qaytarish ramzi.
13.	Besh qirrali yulduz.	Hayotni qisqaligini, besh kunlik dunyo, islomning besh ustuni.
14.	YArim aylana.	Baht.
15.	YAngi oy.	Islom dinining ifodasi. Musulmonlik.
16.	Quyosh.	Hayot, yorug'lik, ilqlik.
17.	Quyosh nuri.	Ziyo.
18.	Bulut, olov.	G'oliblik, ulug'vorlik.
Islimiy naqsh elementlarining ramziy ma'nolari.		
1.	Bodom.	Baht – iqbol.
2.	Barg.	Bahorgi o'yg'onish.
3.	Qalampir.	Har hil yomonliklardan va yomon ko'zlardan.
4.	Zirk guli (gulsafsar).	Asrash ramzi.
5.	Anor.	Osoyishtalik va umr uzoqligi.
6.	Oygul.	Ezgulik to'qchilik.
7.	Jingala.	Baht – iqbol, go'zallik.
8.	Olma.	Tukin – sochinlik, boylik ramzi.

9.	Novda.	Muhabbat.
10.	YApproq.	Boylik va faravonlik.
11.	Isiriq.	Bahorgi o'yg'onish. Navro'z.
12.	Atirgul.	Go'zallik.

Qush va hayvonlar.

1.	SHer.	Mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik.
2.	Tulki.	Makkorlik, ayyorlik.
3.	CHumoli.	Donolik, hokisorlik.
4.	Bulbul.	Sadoqat.
5.	Humo.	Baht qushi.
6.	Boyqush.	Bahtsizlik, vayronalik.
7.	Baliq.	Hushyorlik, halol luqma.
8.	Sichqon.	O'y hayvonlarining ko'payishi ramzi.
9.	Echki va qo'chqor.	Jasurlik, mardlik, pokizalik.
10.	Oq kabutar.	Tinchlik.
11.	Ohu.	Go'zallik, himoyasizlik, noziklik.
12.	Ajdar.	YOvuzlik, yomonlik.
13.	Ilon.	YOmonlik.

Buyumlarning ramziy ma'nolari.

1.	Taqa.	YOmon ko'zdan asrash ramzi.
2.	Oyna.	Kungil, soflik, aks.

Ranglarning ramziy ma'nolari.

1.	YAshil rang.	Ona tabiat, islom ramzi.
2.	Moviy rang.	Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi.
3.	Qizil rang.	G'alaba, olov, iliqlik, hursandlik, shodlik, qon.
4.	Sariq rang.	Muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik.
5.	Qora rang.	Motam, cheksizlik, mavhumlik, qo'rquv, tushkunlik, noaniqlik.
6.	Zangori rang.	Oliy e'tiqod.
7.	Oq rang.	Poklik, ozodlik, yorug'lik, baht, omad.

Tasvir, astrologiya, munajjim ilmi bilan bog'liqligi haqida to'htalib o'tamiz. Astrologiya ya'ni munajjim ilmi ayrim kishilar va halqlar taqdirini osmon yoritkichlarining vaziyatiga qarab aytish bilan shug'ullaniladigan ta'limotdir.¹

Astrologiya, ilmi nujum (arabcha-munajjim ilmi), ayrim kishilar va halqlar taqdirini osmon yoritkichlarining vaziyatlariga qarab aytish bilan shug'ullanadigan ta'limot. Qadimda Suriya, Bobil, Misr, Hitoy, Hindiston, YUnonistonda va O'rta asrlarda Arabiston, Eron va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Munajjimlar voqea sodir bo'lish paytida Quyosh, Oy, Merkuriy, Venera, Mars, YUpter va Saturinning osmon gumbazlaridagi vaziyatlariga va ular ufqning qaysi qismida joylashganligiga qarab fol ochar edilar. Mirzo Ulug'bek munajjim ilmi bilan ham shug'illangan va nazariy va amaliy asoslari isbotlab bergan. (Mirzo Ulug'bek Ilmi nujum, t. 1994.)²

Agar yulduzlar ilmiga nazar solsak bizningcha Samarqand hokimi sarkarda Yalangtush Bahodir burji Arslon (SHer) bo'lgan yilning 23 iyul - 23 avgust orolig'ida tug'ilgan. Uning harakteri va taqdiri qanday bo'lgan? YUlduz ilmi bo'yicha o'rgansak Yalangtush Bahodir harakteri va taqdiri sharqiy tolenoma "Taqdir ta'biri"³ kitobida qo'yidagicha bayon etilgan. Bu esa naqdini o'qishni yanada osonlashtiradi deb hisoblaymiz.

"Hammaga ma'lumki olam to'rt unsur - Er, Suv, Havo va Olovdan tashkil topgan. E'tiboringizga havola etilayotgan navbatdagi muchal quyosh hukmronligida bo'lib, ramzi esa olovga qiyoslanadi. SHuning uchun mo'ual sohiblari mehribondirlar. Arslon (SHer) - hayvonot podshosi, Odam "Arslon" lar jamiyatda etakchilik rahbarlik sifatleri bilan ajralib turadilar.

Bu muchal sohiblari tor, ko'rimsiz o'ylarga sig'maydilar. Boshqarishga moyilliklari bilan har qanday joyda, har qanday holatda o'zlarini erkin sezadilar, bahs va munozaralarda ko'pincha qo'llari baland keladi. Ular chiroyli va did bilan kiyinadilar.

"Arslon" yoshi o'tgan sayin bosiqliqi va sokinligi bilan yanada ulug'lashib boradi, hech qachon mag'rur boshini egmaydi.

Katta davrlarda "Arslon" hammaning diqqatini o'ziga tortishi yoki bir burchakda qovog'ini solgancha, hech kimga aralashmay o'tirishi bilan ajralib turadi. U juda hurmat talabdir. Mabodo mehmoningiz - "Arslon" ga nisbatan e'tiborsiz bo'lsangiz u sizni hech qachon kechirmaydi.

U suhbat chog'ida odamlarda g'alati bir ta'surot qoldiradi. "Arslon" maslahat berishni yoqtiradi. Ammo, domlanning aytganini qilganini qilma, deganlaridek uning hayoti hamisha ham urnak bo'ladigan darajada emas. Lekin maslahatlarini inobatga olmasangiz ham hato qilasiz! Negaki, uning o'g'itlari turmush tajribalari mahsuli bo'lib, azbaroyi o'zgalarni havfdan ogohlantirish uchun ham "kuyib-pishadi".

"Arslon" lar maqto'vni yoqtiradilar, tanqiddan vajohatlanadilar. Bu muchal sohiblarining orasida turmushga chiqmagan yoki buydoqlar umuman yo'q. CHunki "Arslon" doimo sevib, sevilib yashaydi. Sevgi bobida ular aldanishlari mumkin, ammo ezilmaydilar. "Arslon" lar kuchsiz, himoyasiz odamlarga yordam berishni, kelgan havfga qalqon bo'lishni yahshi ko'radilar va ba'zan-ba'zan ishlarining ko'pligidan, odamlar hadeb unga yordam so'rab kelavermaydilar. Undan qarz so'rasangiz o'zida yo'q bo'lsa, birovdan olib sizga beradi. Sizga, u sirayam pulsiz yurmaydi, degan fikr tug'iladi. "Arslon" larni ko'pincha isitma bezovta qiladi. Ammo bu muchal sohiblarining hech biri tug'ma kasal bilan og'rimaydilar. Ularning yuragi, beli, oyog'i og'rib turadi, lekin og'riq tez o'tib ketadi. Ularning bitta kamchiligi - o'z sog'liqlariga jiddiy e'tibor berishmaydi.

Biz yuqorida Samarqand hokimi bo'lgan Bahodir YAlantushning parakterini va taqdirini aniqlab oldik. SHahar hokimi usta mulla Abdujabbor oldiga qo'yilgan vazifani juda ko'p mushohada qiladi. Me'morchiliklardagi bezaklarga qaraganda o'ziga hos tubdan farq qiladigan shunday kompozitsiya chizganki, naqsh tili orqali shahar hokimi YAlantush Bahodir o'z avlodlaridan qolmasligini afsonaviy qahromonligini ziyo tarqatuvchi o'z halqiga fidoiyligini mohirona ko'rsata olgan. Me'mor-naqqosh ya'ni munajjim ilmi, ramziylik rang psihalogiyasi muqaddas kitobimiz "Qur'oni Karim" ni po'hta bilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Tasvirda epchil, kuchli, engilmas yo'lbarssimon SHer orqali ramziy ma'noda YAlangtush Bahodirga ishora qilingan, unga muqoyasa qilib kuchsizlik ru'iy poklik ramzi tariqasida o'hu ta'svirlangan

(1-rasm). Aslida hayotda SHer boshli yo'lbars bo'lmaydi.
Kompozitsiyada ramziy olingan.

№	Ramzlar.	Ramziy ma'nosi.
1.	SHerning boshi.	Kuchlilik va donolik ramzi.
2.	Yo'lbars tanasi.	Epchillik ramzi.
3.	SHerning oyoqlari.	Mustahkam kuchga va ajdodlarning katta ma'naviy hamda moddiy asosga egaligi.
4.	SHerning qulog'i.	Hushyorlik ramzi.
5.	SHerning tishi.	Tafakkurni o'tkirligi.
6.	SHerning erkagi.	Hokim Bahodir YAlangtush qiyoslangan.
7.	SHerning badanidagi qora shakllar va oq nuqtalar.	YOvuzlik va ezgulikni bildiradi.
8.	SHerni dumi.	Ulug'vorlik ramzi.
9.	Oppoq rangli ohu.	Qalb va iymon pokligi.
10.	Quyosh.	Hayot, yorug'lik, jo'shqin hayot, davr.
11.	Quyosh nuri.	Nur, ziyo ya'ni ma'rifat bilan tarqatuvchi.
12.	Inson qiyofasi.	Oloq hamma narsani ko'rguvchi va bilguvchidir. Oloq guvohdir, degan ramziy ma'noda ta'svirlangan.
13.	Qora soch.	YOshlik, kuchlilik va go'zallik ramzi.
14.	Sochning gajagi.	Moddiy va ma'naviy boylik.
15.	YAnoqdagi hol.	Komillik ramzi.
16.	Islimiy naqshlar.	Ona tabiat, tabiatning go'zalligi, nozi – ne'matlar diyori ekanligi.
17.	Zarhal rangli gullar.	Go'zallik ramzi.
18.	Oq gullar.	Pokizalik ramzi.
19.	YAshil rang.	Islom dini, iymon, e'tiqod ramzi.
20.	Havo rang.	Koinot, olamning cheksizligi, tinchlik va yomon ko'zdan asrash ramzi.

SHerning erkak boshini olishi orqali hokim Bahodir YAlangtushning kuchlilik, ziyoliligi va donoligini, yo'lbars tanasi orqali epchilligini sherning oyoqlari orqali ona erida mustahkam kuchga katta ma'naviy hamda moddiy asosga egaligini bildiradi¹. SHerni qulog'i orqali uning hushyorligini tishi esa tafakkurini o'tkirligini, yo'lbarssimon sherni badanidagi qora va oq nuqtalar hayot yovuzlik va ezgulikdan iboratligi, dumi esa ulug'vorlikni, ohu kuchsizlik ramzi tariqasida qiyoslangan. Quyosh hayot, yorug'lik, jo'shqin hayoti quyosh nuri esa olamga

ziyo ya'ni ma'rifat va bilim tarqatayotgani, inson qiyofasi orqali YAlangtush Bahodir o'z avlodlaridan qolishmasligini Olloh guvohdir deyilgan.

CHunki yuqoridagi tushunchalarga ko'ra, ajdodlar ru'i tufayli maysalar o'nib o'sadi.

Bu hil qarashlarni tahlil qilar ekanmiz, halqlarning etnik tarihida ham ranglar muhim rol o'ynaganini ko'ramiz. Jumladan, qadimgi turkiy halqlarda oq qipchoq, sariq qipchoq, oq nug'ay, oq hunlar, ko'k turkqizil ug'uz kabi qabila va urug'lar bo'lgani tarihiy manba va adabiyotlardan yahshi ma'lum. Turli ranglarga mansub bo'lgan bu hil etnik nomlar tasodifan yuzaga kelmagan, albatta. Qadimgi davrlarda turkiy qavmlar dunyo tomonlarini ranglar nomi bilan atashgan, chunonchi qora rang-shimolni, qizil rang-janubni, ko'k rang-sharqni, oq rang-g'arbni, sariq rang-markazni bildirgan.

Biz ranglar timsolini o'zbek halqining etnogenezi va etnik tarihida muhim rol o'ynagan qang'lilar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ular tarkibida qora qang'li, qizil qang'li, ko'k qang'li, sariq qang'li, oq qang'li urug'lari bo'lgan. Taniqli olim K.SHoniyozov yuqoridagi fikrlarga tayanib, qora qang'lilar-shimolda, qizil qang'lilar-janubda, ko'k qang'lilar-sharqda, sariq qang'lilar-markazda, oq qang'lilar-g'arbda yashagan bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari so'radi. Bizningcha, buning tarihiy asoslari paytida rangiga qarab joylanish tartibiga bog'liq bo'lsa kerak. Qadimgi hunlarda qo'shindagi otliqlarning joylashuvi rangiga qarab farqlangan. Masalan, g'arb tomonda oq ot mingan suvoriylar, shimolda qora ot mingan askarlar saf bo'lib turgan. Hulusa qilib aytish mumkinki, halqimizning marosim va udumlarida ranglar o'ziga hos ramziy ma'noga ega edi. Bularning bari esa halqimiz ma'naviyati jihatidan yuksak va boy tarihiy an'analar sohibi bo'lganiga yana bir bor ishonch o'yotadi

2.1. Buxoro me'morchilik san'ati tarixidan.

Buxoro- jahonning eng qadimiy shaharlaridan biri. Bu shahar ko'plab sayyohlar e'tiborini tortgan mashhur qadimiy arxitektura yodgorliklariga boy. Bu yerda qariyb 140 arxitektura yodgorligi saqlanib qolgan. Buxoro qadimiy SHarq shahri qiyofasini Markaziy Osiyoning boshqa har qanday shahridan ko'ra ko'proq saqlab qolgan. Buxoro-O'rta Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlarini aks ettirgan chinakam yilnoma. SHahardagi har bir yodgorlik o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlaydi.

Bu ajoyib shaharning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi.

Olis o'tmishda Buxoro hududidan o'sha davr uchun muhim bo'lgan xalqaro savdo-iqtisodiy yo'llar, eng avvalo, Buyuk ipak yo'li o'tgan. Keng rivojlangan savdo almashuvi Buxoro shahri ho'jaligining, shuningdek, yo'llar o'tadigan hududlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan.

Buxoroni haqli ravishda "sharaf manzili", "saltanat Ka'basi" va "mashhur kishilar to'planadigan joy" deb atashgan. Qadimiy Buxoroning ziynati va nodirligi uning betakror arxitektura yodgorliklaridadir.

Buxoro bir qancha asrlar davomida Turkiston shaharlari o'rtasida yetakchi mavqeni egallab turdi. Bu davrda hunardmanchilik, savdo, qurilish san'ati, fan, adabiyot, san'at ravnaq topdi.

Buxoroda madaniyat yodgorliklari ko'p bo'lib, ular Buxoroni muzey-shahar deb atashga huquq beradi.

MINORAI KALON

Buxoroni ulug'vor Minorai Kalonsiz tasavvur etish mumkin emas. O'rta Osiyodagi mashhur arxitektura yodgorliklari o'rtasida eng balandi hisoblangan va 900 yildan ziyodroq vaqt avval qurilgan bu minora Buxoro qiyofasida alohida mavqega ega. Uni ba'zida «o'lim minorasi» yoki «ajal minorasi» deb atashgan va, afsonalarga qaraganda, o'limga hukm etilgan jinoyatchilarni, bevafo hotinlarni undan tashlashgan.

Minorai Kalon «Arslonhon minorasi» deb ham atalgan. Muhandis va me'mor Baqo loyihasi asosida Arslonhon 1127 yilda qurdirgan. Minorai Kalon o'rnida

avval ham minora bo'lgan, u qulab tushgach, hozirgisi mustahkam qilib, qayta qurilgan. Poydevori tosh va mahsus qir qorishmasidan terilgan. Er sathidan 9 m chuqur, balandligi 50 m., kursisi qirrador, tanasi g'o'lasimon, tepasi gumbazli, davra qafasi- ko'shq bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pilpoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai Kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht ganchhoq loyida terilgan. Bezak g'ishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan ustma-ust joylashgan turli hil handasiy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarihiy va diniy mazmundagi qufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarining har biri turli hil handasiy shaklda bezatilgan (keynchalik to'kilib ketgan). Minorai Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. SHakllarning o'zaro monandligi va mutanosibligi, handasiy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Tanasi va muqarnaslari ta'mir etilib (1924 y.), er ostidagi asosi usta ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan.. Minorai Kalon Buxoro shahrining noyob va qo'hna yodgorliklari qatorida markaziy o'rin egallagan.

MASJIDI KALON

Masjidi Kalon - me'moriy majmuasi ansambli tarkibiga kiradi.

Ushbu jome masjid Buxoroning ko'p asrlik tarihi guvohi bo'lib qolgan. Juma namozi paytida uning gumbazi ostida minglab musulmonlar to'planardi.

Buxoro aholisi musulmon diniga murojaat etgan paytlari Qur'on suralarini fors tilida o'qigan bo'lib, arab tilini o'rgana olishmagan. SHu bois masjidda alohida tayinlangan ruhoniylar yig'ilganlarni namoz o'qish shartlariga o'rgatardi.

Vaqt o'tishi bilan musulmon diniga sig'inuvchilar ko'payib, masjidga borgan sari sig'may qolishgan. SHu bois 770 yili shahar va qal'a o'rtasida gumbazli masjid barpo qilindi. Narshahiyning «Buxoro tarihi» kitobida yozilishicha Ramazon oyining jumalaridan birida masjid binosi birdaniga qulab

ketgan va ko'plab odamlar vayrona ostida qolishgan. Bino qayta tiklandi, lekin "qibla" tomonidagi devori qayta qulab ketdi.

Keyingi masjid qurilishi besh yil davom etdi. Buxoro honlari orasida ichki urush boshlangan mahalda masjid binosi, ko'pgina qismlari yog'ochdan ishlangani bois, yonib ketgan.

Buxoro tahtiga o'tirgan yangi hukmdor SHams-ul-Mulk qarori bilan 1068 yilda yangi masjid qad ko'tardi. 1121 yilda esa Arslonhon buyrug'i bilan gumbazli masjid Minorai Kalon yaqiniga ko'chirildi.

CHingishon qo'shinlari bosqinchiligi shaharning ko'p asrlik tarixida eng og'ir va dahshatli davr bo'lgan. Tarixchi Rashid ad Din bu haqda bunday deydi: "... Mo'g'ul askarlari bilan birgalikda u (CHingishon) Buxoroga kirdi. Juma masjidning guzal binosi, katta dabdabali qurilma uning ko'ziga tashlandi va, birinchi bo'lib, masjid minbari oldida to'htadi. CHingishon –«Bu shohning qasrimi?»- deb so'radi. Unga- "Bu hudoning uyi" –deb javob berishdi. SHunda u otdan tushib, minbarga chiqdi va shunday dedi: –«Dala o'rilgan, otlarimizga em bering". Vahshiy mo'g'ullarning talon-tarojiga berilgan ruhsatdan keyin, Buxoroga qanday ochko'zlik bilan tashlashganligini tasavvur qilish oson. "... Nafaqat barcha uy-joylar va buyumlar sindirildi, ulkan boyliklar talon-taroj qilindi, Qur'onlar yirtilib, somon o'rniga yuk tashuvchi hayvonlarning oyog'i ostiga tashlandi. Muhtaram shayhlar bazm qilayotgan askarlarga hizmat qilishlari kerak edi, aks holda mo'g'ullarga kulgi bo'lishlari kerak edi. Ruhoniylar, hizmatkorlarga o'hshab, otlarga qarashlari kerak edi. Toptalgan masjid, yong'indan qolgan yagona bino, mo'g'ullar vahshiylikining timsoli bo'lib qoldi..."

Donishmandlarning aytishicha, hamma narsa o'tkinchi. Bu shafqatsiz davr ham o'tib ketdi.

Hozirgi kunlarga qacha saqlanib qolgan **Masjidi Kalon** XII asrdagi qadimiy imorat qoldiqlari ustiga XIV-XV asrlarda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida ta'mir etilgan (masjid hovlisi va atrofida olib borilgan arheologik tekshirishlar natijasida aniqlangan).

Masjid to'g'ri to'rtburchak tarhli (127h78 m), keng hovli atrofni gumbazli bostirma ayvon egallagan. 288 kubba (gumbazcha) 208-ta ustunga tayangan. Ular o'ziga hos mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, ustunlarga keyinchalik murabba tarhli poyustunlar o'rnatilgan. Hovlining to'rt tomoni markazida naqshinkor peshtoqlar bor. SHarqdagi tashqi ulkan peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan alohida ajralib turadi. Masjidi Kalonning tashqi 7-ta eshigi bo'lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravog'idagi bolohona va uning yon tomonidagi qirrali ravorqlar koshin va sirlangan g'ishtlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ganchkori ravoqlar alohida ajralib turadi. Peshtoq orkali hovli to'ri (yuqorisi)dagi honaqoh-maqsurga o'tiladi. Oygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Ichki gumbaz osti bag'allariga «qolibkori» uslubida qator mayda ravoqcha (16ta)lar ishlangan, mehrob bezaklari nafis koshinorlik san'atining yuksak namunasidir, unda usta Boyozid Purnoniy nomi va «1514 yil» sanasi qo'rsatilgan.

MIR ARAB MADRASASI

Madrasalar XII-XIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. IX-XIII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan O'rta Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Madrasalarning hon madrasalari, eshon madrasalari, hususiy madrasalar kabi turlari bo'lgan. Madrasa muassislari madrasalarni ta'minlash uchun mahsus mulk-vaqf ajratishgan.

Madrasalar musulmon olamida me'morlik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofii hujralardan iborat bo'lgan. XIV-XVI asrlardan boshlab hashamatli madrasalar binolarini qurish avj oldi. XX asr boshida Buxoro amirligida 336 madrasa bo'lgan.

Bu davrda Buxoro hamda O'rta Osiyo boshqa shaharlarida musulmon ruhoniylarning nufuzi yanada oshgan edi. Islom ruhoniylardan ko'pginasi yirik mol-mulkka ega edilar. Islom dinining qudratini yanada mustahkamlash va o'z

ahamiyatini yuksaltirish maqsadida boyliklarining bir qismini diniy inshootlar qurilishiga yo'naltirganlar.

Mir Arab madrasasi Buxoro honi mumtoz shoir Ubaydullahon buyrug'iga binoan SHayh Abdulloh (Miri Arab) tomonidan 1530-36 yillar davomida qurdirilgan.

Mir Arab (asl ismi Sayid Abdulloh Amir) 22 yoshida Samarqandga kelib Ho'ja Ahrorga shogird tushgan. Turkistonning Sabronida 2-ta qoriz (er osti arig'i) qazdirgan, suv chiqargan, qal'a bino etib, SHofirkon, Vobkent, Gijduvonda ko'p joylarni obod qilgan. SHofirkonda Miri Arab qal'asi saqlangan. U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga etqaza olmagan. 1536 yil boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga ko'ra kuyovi SHayh Zakariyo qurilishni ohiriga yotqazgan.

Bu madrasa Ubaydullohonning Horasanga lashkar tortib borib, muvaffaqiyat qozonishi sharafiga qurila boshlangan. Hon u erdan katta o'lja va uch mingdan ziyod qul olib kelgan. Tarihiy yozuvlarga ko'ra madrasa qurilishiga in'om etilgan mablag'lar kullarni sotishdan kelgan pullar edi.

Madrasa Minorai Kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darshona va masjid, go'rhona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan) Go'rhona ichi gumbaz osti bag'ali qalkonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch uymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go'rhonada Ubaydullahonning, yog'ochdan hotamkori usulida ishlangan, sag'anasi va Mir-Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Madrasaning umumiy tarhi: 68,5 h 51,8m. Hovlisi to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofini oldi ravoqli ikki oshyonli 114 hujra o'rab turadi. Tomonlar o'rtasidaga 4-ta baland peshtoqli darshona-ayvon hovli mahobatini oshiradi, tuzilishi jihatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin. Rivoyatlarga ko'ra madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan

mustahkamlangan, qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan. Miri-Arabda O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga hos an'anaviy loyiha va mujassamot o'z ifodasini topgan.

Madrasaga maktabhonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentyabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Madrasada hafta kunlari **tahsil** (shanba, yakshanba, dushnba, seshanba)- mashg'ulot kunlari va **ta'til** (chorshanba, payshanba, juma)- o'tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo'lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod namozidan eyin) boshlangan. Madrasada ta'lim 3 bosqichga: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo)guruhlarda olib borilgan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil o'tgan.

Hozirgi kunda Mir Arab Madrasasi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy o'quv yurti bo'lib qolmoqda. Madrasada diniy fanlar hamda umumta'lim fanlari o'qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o'rgatiladi

B U X O R O A R K I

Buxoroning markazida qadimiy qal'a- ark qad ko'targan. U muzey-shaharning eng ko'hna arxitektura yodgorligidir.

ARK – *O'rta Osiyo qo'hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'aband o'rda.*

Rivoyatlarga ko'ra Ark paydo bo'lishi O'rta Osiyo halqlarining epik kahramoni Siyovush nomi bilan bog'liq. Siyovush Qay Qovusning o'g'li, uni Bahodir Rustam tarbiya qilgan. O'gay onasi Sudoba Siyovushga shahvoniy mehr qo'ygan. Biroq undan rad javobini olgach, o'zini nomusiga tajovus qilganligida Siyovushni ayblagan. Siyovush gulhan sinovidan o'tib, o'zini pok, aybsizligini isbot qilgan. SHundan so'ng Siyovush Turon podshosi huzuriga kelgan.

Podshohning qizi Farangiz Siyovushni sevib qolgan, lekin podshoh Siyovush oldiga buqa terini yoyib , bu teriga sig'adigan erda qasr qurib berish shartini

qo'ygan. Siyovush ushbu terini tilim-tilim qilib kesib, uchlarini birlashtirib, hosil bo'lgan davra markaziga qasr qurdi.

Podshox uni dastlab yahshi qabul qilgan, so'ngra Afrosiyob makkorlik bilan uni o'ldirgan.

Ark to'g'risida ilk ma'lumotlar Abubakr Narshahiyning «Buxoro tarixi» kitobida berilgan.

Yozma tarixiy manbalarda *ko'handiz, diz, koh, qasr, qal'a*,lari bilan ham tilga olingan. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do'nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o'ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo'lgan. Ark ichida podshoh va amirlarning, amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari, zarbhona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo'lgan.

Ark – Buxoroning ming yillik tarihi va asosiy rivojlanish bosqichlarini aks ettirgan chinakam yilnoma. Arkdagi har bir yodgorlik o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlaydi.

Dastlab, miloddan avval I asrda qurilgan shaharning qadimiy qal'asi bo'lgan. Arablar istislosiga qadar Arkda shahar hokimlari- buhorhudotlar yashagan. Somoniylar davrida (IX-X asr) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustahkamlangan. Qorahoniylar davrida (XI-XII asr) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (XIII asr) Ark bir necha bor vayron qilingan.

Ko'p marotaba shaharda qo'zg'olonlar ko'tarilgan va shunda Ark shafqatsiz zulm ramziga aylangan, uning darvozalari tomon 1708 yilda pul islohotini bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan qozg'olondagi kabi, toshlar otilgan.

Ark faqatgina halq la'natlaydigan hokimlar karorgohi bo'lib qolmay, bu erda buyuk olimlar, shoirlar, faylasuflar ijod qilganlar. O'rta asrlarda Buxoroning madaniyati gullab yashnaganda ilm-fanga e'tibor oshgan bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib berilgan edi. Bu koshonada entsiklopedist olim Aburayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Farobiy, Umar Hayyom kabi jahonga mashhur bo'lgan o'rta asr olimlari yashadi va ijod qildi. Ammo taqdir, Buxoro hokimlari aksida, iste'dodli odamlarga nisbatan shafqatsiz bo'lsa ham (Rudakiy va Ibn Sino Buxoroni tark etganlar), Arkda ular

odamzodning buyuk aql egalari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bu imkoniyatni noyob kutubhona taqdim etgan. Buyuk Avitsenna bu haqda shunday yozgan:-“ Men bu kutubhonada umrimning ohirigacha hech qaerda ko'rmagan va uchratmagan kitoblarni topdim. Men ularni mutolaa qildim va menga har bir olimning o'z ilmida o'rni ayon bo'ldi. Mening oldimda aql bovar qilmaydigan bilim hazinasi ochildi». Bu kutubhona noma'lum sabablarga ko'ra saqlanib qolmagan.

Buxoro Arkining hozirgi qiyofasi asosan SHayboniylar sulolasi davri (XVI asr) da shakllangan.

Balandligi 20 m.gacha bo'lgan Ark tepalik ustiga qurilgan Arkning maydoni- 4 ga, tarhi ko'pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va hom g'isht, pahsalar bilan mustahkamlangan. O'pirilib tushgan joylari dastlab hom g'ishtdan, keyin pishiq g'ishtdan ta'mir etilgan. Ko'tarib boruvchi yo'l orqali g'arbdagi darvozadan (XVI asr) ichkariga kiriladi (sharq tomonida ham ilgari darvoza bo'lgan). Darvozahona peshtoqning ikki yon tomonidagi «guldasta» va ular oralig'idagi uch qavatli bino yahshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalon- yo'lakning chap devoriga va o'ng devoriga 12 tahmoncha qilingan. CHap tomonidagi toqchalarining ba'zilarida obhonaga kiriladigan eshiklar bor. Guldasta (burj)lar tagida zah va dim erto'lalar bo'lgan.

Dalonning o'ng tomonidagi o'rta toqchasida afsonaviy kahramon Siyovush ruhiga Navruz bayramida chiroqlar yoqilgan. Nishopuriy yozishicha, uldirilgan Siyovush jasi Buxoro sharqiy darvozasi (Go'riyon) oldiga ko'milgan. YAngi yil kuni quyosh chiqquniga qadar har bir erkak Siyovushga atab huroz so'yishi lozim bo'lgan.

Amir sayishona (othona)siga ham shu erdagi zinadan kirilgan. Dalondan chiqaverishda to'pchi boshi (Saroy qo'riqchilari boshlig'i)ning mahkamasi, shu erdagi ayvon tagida erto'la bo'lgan (bu binolar buzilib ketgan). Undan sal narida (g'arbiy devor burchagida) peshayvonli jome masjid (Saroy masjidi) qurilgan (XIII asr oxiri). Masjid derazalari panjarali, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlari bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girihlar bilan

bezatilgan. Arkning shimoliy-g'arbiy burchagida to'pchi boshining uyi va ta'mir ishlari ustidan nazorat qiluvchi kishi turadigan hona bo'lgan. Masjidning sharq tomonida oshhona, orqa tarafida zarbhona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qilinadigan joy) bor. Zarbhonaning shimoliy-sharqida zargarhona, janubida devonbegining mahkamasi, qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zilar hozir ham bor). Jome masjiddan boshlangan tor yo'lak, qushbegi hovlisi orqali, chorsuga tutashgan. CHorsuning chap tomonida tom yotqizilgan katta hovli- ko'rinishhona o'rnatilgan. Unda elchilar qabul qilingan va amirlarning tahtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishda naqshli peshtoq bo'lgan (1605 y.). Hovlining uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning tepasi kalla muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taht shu ayvondagi tahtiravon tagida turgan. Hovlining janubiy tomonida «Rahimhon mehmonhonasi» va qorihona qurilgan (HUSH asr). Bu binolar tagida erto'lalar bo'lib, ularda hazina saqlangan. Arkning shimoliy sharqidagi zindon mangitlar saltanati davrida qurilgan.

Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va boshqa hizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida- salomhona, undan sharq tomonda mehmonhonalar, amir hamda oliy mansablarga qarashli boshqa binolar joylashgan (miyon hovli). Janubda hammom, hammomning sharq tomonidagi kichkina masjid hozirgacha saqlangan. Arkning markazida o'rda (amir hotinlari turadigan uylar), shimolda qushbegi hotinlari uylari, hammomning sharqida haramidagi qizlarning uylari, sharqida zodagonlar yashaydigan uylar bor. SHimoliy-sharqiy burchakda CHilduhtaron masjidi va Battol G'oziy mozori bo'lgan.

Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachcha (soqchilar kazarmasi), janubiy –sharqiy burchagida doriyona (o'q dorilar ombori) joylashgan (arkning g'arbiy devoriga taqalgan binolarning bir qismigina saqlangan). Arkdagi qariyb 80 foiz imoratlari saqlanmagan. Arkning markazida (poydevor qoldiqlari va harobalari orasida) er tagidan o'tgan Ark ichiga qarab ketgan katta sopol quvurlar ko'rinib turadi. Bular oqova suv quvurlarining qoldiqlari. Arkning g'arbiy devoridan

boshqa hamma devorlarining burchaklaridagi minoralar buzilib ketgan. Ark darvozasi oldidagi Registon maydonida ko'pgina imoratlar bo'lgan. Uning g'arbiy devoriga qaragan peshayvonga zambaraklar qo'yilgan. Ark darvozasining chap tomonida lashkarboshi mehmonhonasi, shimolda esa qurol-yarog'lar tuzatiladigan ustahona va aslahathona (ko'rxona) bo'lgan. Arkning shimoliy-sharqidagi «CHilduhtaron» maqbarasi, janubiy-g'arbda "Battol G'oziy honaqohi"ga xos hammom qoldiqlari saqlangan. 1990 yilda arheologlar tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida Amir mehmonhonasi hisoblangan honaqoh va uning atrofidagi hujralarning poydevorlari, hovli ichkarisidagi supa, toshnov, tazar, sandal va yahhonalar ochildi.

Ark tepaligidan qadimiy Buxoroning takrorlanmas tasviri ochiladi. Buxoro restavratorelari Arkni me'morlik san'atining qo'llanmasi deb bekor atamaganlar. Ark devorlari kup asrlik quruvchilik tajribasining yaqqol namunalaridir.

ISMOIL SOMONIY MAQBARASI

Musulmon sharqining ajoyib yodgorligi- Ismoil Somoniy maqbarasi uzoq yillar davomida saqlanib, bizning kunlargaacha yahshi holda etib keldi. Unda ilk o'rta asrlar me'morchiligining eng yahshi yutuqlari o'z aksini topgan. Bu maqbara kompozitsiyasining rang-barangligi bilan kishini hayratga soladi va haqli ravishda SHarq durdonasi hisoblanadi.

Somoniylar maqbarasi tahminan 864-868 yillarda barpo qilingan. Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari maqbarasi bo'lgan. Ismoil Somoniy maqbarasi, 4 tomoni bir hil chordara shaklida, jim-jima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, bo'yra to'qimasini eslatadi. Devor qalinligi- 1,8 m, tarhi: tashqarisi - 10,80 h 10,70m, ichkarisi - 7,20 h 7,20m. Usti gumbaz bilan qoplangan, 4 burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 kubba o'rnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darchalar bor (40ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetida mayda g'ishtdan chorsi tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bezak bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jihatdan bir hil.

Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arheologik qazilma vaqti (1927 y.)da hona sahnida 2 yog'och sag'ana borligi aniqlangan. YOzma manbalar va rivoyatlarga ko'ra, maqbarani Ismoil Somoniy otasi Ahmad ibn Asadning qabri ustiga qurdirgan. SHarq tomondagi sag'ana Ismoil Somoniy qabri (849-907 y.) deb tahmin etiladi.

Narshahiy "Buxoro tarihi" kitobida Ismoil Somoniyni o'g'li Amir Ahmad (914 y.) o'z qullari tomonidan o'ldirilgan va mazkur maqbaraga qo'yilgan deb yozadi. M.Saidjonov topgan Vaqfnoma (868 y.)da zikr etilishicha otasi amir Ahmad ibn Asad mozoridan Registongacha bo'lgan erlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi O'rta Osiyo me'morligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimiy sug'd me'morligining an'analari saqlanib qolgan buyuk me'moriy asardir.

1934 yilda V.Vyatkin boshchiligidagi arheologik tekshiruvlar olib borilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishicha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlandi.

LABIHOVUZ ANSAMBLI

Labihovuz majmuoti joylashgan joyda dastlab bozor maydoni bo'lgan. Maydon o'rtasida katta hovuz qazilib (1620 y.) atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan, harsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. SHag'al va tuproq bilan to'ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo'yi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Uning g'arbida Nodir devonbegi honaqohi, sharqida Nodir devonbegi madrasasi, shimolida Ko'kaldosh madrasasi va Ernazar Elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko'targan.

Labihovuz paydo bo'lishi to'g'risida bir tarixiy voqea saqlanib qolgan. Buxoro honi Imomkulihon bosh vaziri bo'lmish Nodir devonbegi o'z honaqohi yaqinida keng hovuz qurdirmoqchi va shu maqsad uchun bir yahudiy ayolga tegishli bo'lgan erni egallamoqchi bo'lgan. Lekin er egasidan rad javobini olgach,

vazir bu ayolning uyi ostidan ariq qazishga buyruq bergan. Ariq suvlari uy devorlarini namlanishiga va uyni buzilishiga sabab bo'lgan. Bechora ayol uyini tark etishga va erini qudratli vazirga topshirishga majbur bo'lgan. Halq qurib bitkazilgan hovuzni mahfiy ravishda «Hovuzi bozur» deb nomladi. Bu ikkita so'z esa arab tili transkripsiyasida "1620 yilda qurilgan" tushunchasini beradi.

KO'KALDOSH MADRASASI.

Ko'kaldosh madrasasi Labi hovuz ansamblining shimollida joylashgan. Buxoro honining vaziri Kulbobo Ko'kaldosh qurdirgan (1568-1569 y.) Ikki qavatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girih va islamiy naqshlar bilan bezatilgan. Hotamkori uslubida terib mahkamlangan pilaqchalardan yasalgan darvoza tabaqasi yahlit tahtadan tayyorlangandek ko'rinadi. Madrasa hovlisiga 5 gumbazli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyosaroyning ichki gumbazlari va bag'allari shipi o'ziga hos turli shaklda murakkab to'rsimon-yulduzsimon, "qolibkori" va "iroqi" uslubida pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42 h 37 m), o'rta yangi imorat 1929 yilda qurilgan. Hovli tomondagi 2 qavatli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli 160 hujra bilan o'ralgan. YOn tomonidagi hujralarning pastki qavatiga (tashqi devorlarida) honani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. YUqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjalarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darshona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me'morligiga hos qadimiy milliy an'analari aks ettirilgan.

Ko'kaldosh Madrasasida Sadriddin Ayniy tahsil ko'rgan, u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jihozlangan.

NODIR DEVONBEGI MADRASASI.

Buxoro honi Imomkulihonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sulton) qurdirgan (1622-23 y.). Nodir devonbegi madrasasi Labihovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, keyinchalik honning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga hos ayvon, masjid va katta darshona yo'q, hovli atrofi 4 tomondan 2 kavatli kichik hujralar bilan o'ralgan. Hujralarga o'ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan. Hovliga pishik g'isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog'i o'ziga hos mahobatli va serhashamdir. Undagi o'simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy humo qushi va bug'uning o'tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabiy o'zuvlar bitilgan. Ustungo'shasi buramasimon. Peshtog'ining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3-ta chuqur ravoqli peshayvon, alohida zeb berib, pardozlangan. Burchaklaridagi 2 guldasta ravoqlardagi naqshlar bilan o'zaro uyg'unlashgan. Madrasa tarhi 52 h 49m, hovli 34 h 30m. Nodir devonbegi madrasasi bir necha marta ta'mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo'qotilib, buzilib ketgan hujralari qayta tiklandi.

Nodir devonbegi **HONAQOHI** Labihovuz ansamblidagi hovuz bilan birga 1620-21 yillarda bunyod etilgan. Peshtog'i hashamatli, ravog'ining qanosi ancha baland, ulug'vor, ayrim erlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. 2 tomonidagi tagi qirrali guldasta- mezanalar old ko'rinishiga salobat beradi. Honaqohning 2 yonidan ham hujralarga kiriladigan eshiklari bo'lgan. Devorlari bir necha bor ta'mirlangani (1914-16 yillarda Buxoroning ohirgi amiri Sayid Olimhon tomonidan ta'mirlangan)dan asl ko'rinishi o'zgargan. Nodir devonbegi honaqohi simmetrik tarhli (27,5 h 25 m), kiraverishda ayvon, honaqoh (11,2 h 11,2 m) va uning yon tomonlarida 2 qavatli darvishlar yotog'i bo'lgan. Guldastalar ichidagi aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Honaqoh ulkan gumbazli, devorlariga tahmonlar ishlangan. Undagi serhasham naqshlar saqlanmagan. Peshtog'idagi 3 tobadonni ganchkori panjaralar bezagan.

ULUG'BEK MADRASASI

Mirzo Ulug'bek huqmdorligi davrida Samarqand va Buxoro shaharlari madaniyati bilan shuhrat qozondi. Temuriy Mirzo Ulug'bek ilm-fanga e'tiborli huqmdor bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib bergan edilar. Bu erda jahonga mashhur bo'lgan o'rta asr olimlari yashadi va ijod qildi.

Ulug'bek haqida Alisher Navoiy quydagicha yozadi: «Ulug'bek- dunyo chirog'i! Uning hamma ajdodlari boqiy dunyoga ketdilar. Ular haqida bugun kim ham eslaydi!. U esa ilm bo'stoniga panja urdi va ko'p narsaga erishdi. Osmon uning poyiga tushdi va yaqin bo'lib qoldi».

Buxoroda 1394-1440 yillarda qad ko'targan madrasa, Ulug'bek qurdirgan 3 madrasaning eng qadimiysi hisoblanadi. Mirzo Ulug'bek mo'ljali bo'yicha bu madrasa butun musulmon SHarqida eng ulkan bilim va ma'rifat o'chog'i bo'lib qolishi lozim edi. Mashhur tarixshunos V.V.Bartold «Ulug'bek va uning zamoni» kitobida tarixchi Vasifi hotirnomasi keltiradi :- "...Madrasa qurilishi ohiriga yaqinlashib bo'lgach saroy amaldorlari va ko'ruvchilari:- «Mudarris lavozimiga kim tayinlanadi»- deb Mirzo Ulug'bekka murojaat qilganlar. Mirzo Ulug'bek: - «... madrasani barcha ilmlarga ega bo'lgan kishi boshqarishi lozim» deya javob bergan. SHohning shu so'zlarini eshitgach madrasa qurilishida qatnashganlardan biri bu lavozimga munosibligini izhor qilgan. Ulug'bek unga ko'pgina savollar berib, uni imtihon qilib qo'rdi. Bilimdonligiga ishonch hosil qilib, uni yuvintirib, yahshi kiymlarni in'om etishga buyurtirgan". SHunday qilib Ulug'bek madrasasiga muddarris sifatida birinchi bo'lib Mavlono Muhammad Hovariy tayinlangan.

Madrasaning bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtog'ida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o'tiladi. Miyonsaroy ichki gumbazi 12 qirrali, g'ishtdan to'rsimon shakl qilinib, oralariga ko'k va havo rang koshin terilgan. Hovli atrofini ikki qavatli hujralar qatori va peshtoqli 2-ta ayvon egallagan. Hovlining shimoliy

va janubiy tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Madrasa (53 h 41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo''jaz, o'zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o'ziga hos. Masjid (1,5 h 5,5 m) va darshona (5,5 h 5,5 m) gumbazli, miyonsaroyning 2 yon tomonida joylashgan.. Miyonsaroyning 2-chi qavatida kutubhona bor. Abdullahon –P davrida katta ta'mir ishlari olib borilgan (1586 y.). Ho'ja Sa'id Jo'yboriy tomonidan tashqi peshtog'i va yonlaridagi hujralar ta'mir etilib , peshtoq bezagida mayda yozuvli va naqshli koshin ishlatilgan. Hovli g'arbidagi hujra tepasida ganchkori bezaklar orasida ta'mirlovchi usta Ismoil ibn Tohir ibn Mahmud Isfahoniy nomi saqlangan. Abdurazzoq Samarqandiyning habar qilishicha Ulug'bek (1419 y. 28 noyabrda) madrasaga kelib ilm oluvchi talabalarga in'omlar ulashgan. Bizgacha Ulug'bek madrasasi ancha o'zgargan holda etib kelgan. Bir necha bor ta'mirlangan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p. Ayvon ustunlari zarhallangan. Eshik tabaqalariga arab tilida **“Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”**, degan ibora o'yib yozilgan.

QO'SHMADRASA

Buxorodagi qo'sh (muqobila) uslubida bunyod etilgan me'moriy yodgorlik; qadimiy ko'chaning ikki yonini egallagan. Abdullahon madrasasi (1588-90 y.) va Modarihon madrasasi (1566-1567 y.)dan iborat majmua. Ikkala binoning bosh tarzlari bir mujassamot o'qi bo'ylab bir biriga qaratib qurilgan; majmua uchun ajratilgan joydan mohirona foydalanilgan. Abdullahon madrasasining tarhi to'rtburchak bo'lgan holda janubiy tomoni qisman ichkariga kirgan, g'arbiy va shimoliy tomonlarida tashqariga chiqqan bo'rtiq qismlari mavjud; bo'rtiq qismlarining o'rtasida hovli bo'lib, u 2 qavatli (“YO'rug'li” va gumbazlidir (gumbaz “Abdullahon fonusi”) deb yuritiladi). Modarihon madrasasidan o'tgan mujassamot o'qi darvozahonaning orqasida sinib davom etadi. Bu madrasani qibla tarafga qaratib qurish zaruratidan kelib chiqqan. Abdullahon madrasasida ham masjid qiblaga qaratish zaruratidan madrasaning umumiy tarhiga nisbatan burchak

ostida qurilgan. Qushmadrassa O'rta Osiyoning noyob me'moriy majmualari qatoriga kiradi.

ABDULLAHON MADRASASI

Qo'sh madrasa ansamblining shimoliy qismida joylashgan. Abdullahon-P buyrug'i bilan 1588-90 yillar davomida qurilgan. Tuzilishi odatdagi madrasalardan ancha farq qiladi. Hovli atrofini ikki oshyonli hujralar o'rab turadi. Har ikki tomonida baland peshtoq joylashgan. Peshtoqlar orqali ichkari honalar va honaqohga o'tiladi. Madrasaning katta peshtoqi janubga qaragan. Peshtoq qanotlari va guldastalar sirkor bezaklar bilan pardozlangan. Darvozadan o'tib, ikki yoqdagi katta honalar- darshona va masjidga kiriladi. Darvoza hotamkori uslubining noyob namunasi- garih shaklli mayda yog'och parchalaridan terilgan. Abdullahon davri me'morligi etuk namunasi bo'lgan bu madrasa Buxoro me'morchiligining XVI asrda erishgan barcha ijodiy yutuqlarini namoyish etadi.

HO'JA ZAYNIDDIN MASJIDI

Masjid ikki ko'cha kesishgan erda bunyod etilgan. Honaqoh-masjid 1465-80 yillarda Buxoro qoziqaloni lavozimida bo'lgan Ho'ja Zayniddin tashabbusi bilan Imom al Buhoriy sharafiga usta Mir Dustumbiy tomonidan qurilgan. Bino masjidga muljallab qurilgan, hujralari ham bor. Honaqoh peshtoq gumbazli katta hona va 5-ta kichik hujralar hamda unga ikki tomondan tutash ayvondan iborat, hovuz hovlining katta qismini egallagan honaqohning janubiy tomonidagi ravoqlardan biriga Ho'ja Zayniddin qabri joylashtirilgan. Honaqohning bosh tarzi peshtog'ida naqsh qoldiklari saqlangan. Katta honadan uch tomon (chuqur ravoq orqali ko'chaga va ikki tomonidan ayvon)ga chiqiladi. Hona gumbazi murakkab qalqonsimon bag'allar yordamida asosiga tayangan, Gumbaz ichi 32-taga bo'linib, ular hallangan mayda gullar bilan bezatilgan, gumbazning quyi qismi muqarnaslar qatori bilan hoshiyalangan, hona devorlaridagi tahmonlarga hamda mehrobga yarim gumbaz shaklida muqarnaslar ishlangan. Devor izoralari sirkori parchinlardan murakkab handasiy shakllar, o'simliksimon naqshlar bilan bezatilgan; gumbaz, tahmonlar, mehrob va g'arbiy devordagi yozuvlar qatori

“kundal” usulida bajarilgan. Devorning yuqori- asosiy qismi islamiy naqshlar (oq, qora, ko’k rang) bilan qoplangan. Katta honaning ayvonga tutash devorlari ravoqli namoyonlarga bo’lingan. SHimoliy-sharqidagi, balandligi 7 m bo’lgan, sakkiz ustunli ayvon atrofi toshlar bilan qoplangan hovuzli hovliga qaragan. Hovuzga o’ymakori ajdar shaklidagi marmar novdan suv keltirilgan. Ayvon shifti toqili, yulduzsimon ettita hovuzaklarga bo’linib, handasiy naqshlar bilan jozibador bezatilgan. Ho’ja Zayiddin masjidi jamoat va diniy binolar me’morligida o’ziga hos mujassamlashtirilgan inshoot sifatida qimmatlidir.

ABDULLAHON TIMI

Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi Abdullahon-P davrida qurilgan (1577 y.).Abdullahon timiga bosh tarzidagi peshtoq orqali kiriladi. Devorlarning 2-ta tomonida ravoqli toqchalar joylashgan. Tim asosi murabba tarhli (39 h 42 m.), uch tomoni berk Baland gumbazli bostirma timni o’rab turadi. O’rtasidagi miyonsaroy, diametri -10 m bo’lgan baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug’ tushadi. Miyonsaroy atrofi dalon. Dalondagi mayda ravoqlar ichida gumbaz tomli do’konlar bo’lgan. Bino pishik g’ishtdan qurilgan, devorlari ganch suvoqli, naqshin bezaklari deyarli saqlanmagan. O’tmishda bu erda shoyi, jun gazlama bilan savdo-sotiq qilishgan.

Abdullahon timi Buxoro shahridagi savdo rastalari, chorsu-toq binolari ichida eng kattasi va shaklu shamoyili jihatidan ancha murakkab va hushbichim hisoblanadi.

TOQI ZARGARON

Zargarlar toqi XVI asrda qurilgan . Zargarlik buyumlarni sotish uchun mo’ljallangan savdo markaz bo’lgan. Gumbazi arablar bosqiniga qadar qurilgan deb tahmin qilinadi. Vosifiyning XVI asr boshlarida yozgan asarida Buxoro chorsusi sifatida tilga olingan.

Toki Zargaron Ulug’bek madrasasi yonida, qadimiy shahriston markazi bo’lib,ikkita katta ko’cha kesishgan chorraha ustini qoplab turadi. Bino, asosan, XV asrlarda qurilgan (XVI asrda to’la to’kis ta’mirlanganligi sababli shu yili

bunyod etilgan deb tahmin qilinadi). Ulkan gumbaz sakkizta toqiga o'rnatilgan, tarhi 45,4 h 43,5m, balandligi 16,7 m., gumbazining asos aylanasi 14 m, poygumbazi ko'p qirrali, undagi 16-ta darcha orqali bino ichiga yorug'lik tushib turadi. Atrofini o'rab turgan do'konlar gumbazi balandligi 5-7 m. O'tmishda uning dalonlarida 36 zargarlik ustahonasi va do'konlar bo'lgan. Atrofiga savdo rastalari, ombor, karvonsaroylar qurilgan.

Toqi Zargaron Buxorodagi toqilarning eng yirigi va mujassamoti jihatidan murakkab hisoblanadi.

TOQI TELPAKFURUSHON

Bosh kiymlar tayyorlash va sotishga muljallangan gumbazli bino 1570-71 yillari qurilgan. Vaqf hujjatlariga ko'ra, turli tomonlardan kelib tutashgan besh ko'chaning kesishgan joyida qurilgan Bosh gumbazi oltiqirrali devor ustiga o'rnatilgan, atrofi- ko'cha, ko'chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan. Gumbaz diametri 38 m, zal shifti – 10 m, savdo ko'chasining saqlanib qolgan maydoni 28 m, ko'cha kengligi – 14 m.

O'tmishda gumbaz ostida bosh kiyim va kitob sotuvchi muqovosoz ustalarning do'konlari bo'lgan.

TOQI SARROFON

SHayboniylar davrida Buxoro hususiy tadbirkorlik, qarz berish va pul almashtirish markaziga aylangan.

Toqi Sarrofon- pul almashtiradigan bosh savdo markazi XVI asrda SHahristonning ikki ko'chasi kesishgan joyda, qadimiy SHohrud arig'i ustida qurilgan. Toqi Sarrafon eng kichik gumbazdir. Bino sakkizqirrali (tarhi 25 h 24 m), gumbazlarning ichki diametri 12 m, Tashqi gumbaz (bal. 16,5 m) 4 toqi ustiga o'rnatilgan, shaharning janubdagi chorraha ustini berkitib turadi. XVI asrning ikkinchi yarmida zalning kesik burchaklaridan biriga masjid, boshqasiga Sarrofon hammomi, qolgan 2-tasiga Sarrofon do'konlari kelib tutashgan. Masjidga kiraverishda «Bu qurilish 1534-35 yillari Ubaydullo BahodirXon podsholigi

davrida yakunlangan” degan yozuv saqlangan. Bu atrofdagi binolarga ham tegishli bo’lishi mumkin. Toqilar orasida Misgaron, Sarrofon hammomlari saqlangan. Hamomlar issiqliqni saqlash maqsadida erni chuqur qazib, deyarli er ostida, yarim er to’la tarzida qurilgan. Arxitekturasi bir-biriga juda o’hashash bo’lgan bu hammomlarning echinish honasi, choy ichib, hordiq chiqariladigan katta (yog’och ustunli) hona, o’rtada asosiy o’qalash honasi, uning atrofida yuviriladigan honalar bo’lib, ular katta va kichik gumbazlar bilan yopilgan. G’isht, tosh terib ishlangan hovuzaklarda issiq va qaynoq suvlar, honalar ostidan qaynoq havo bilan issitilgan. Honalardan honalarga o’tilgan (honalar ichkariga tomon tobora issiy borgan). Oqava suvlar uchun ariqchalar qazilgan. Hushbo’y moddalar va qo’l suv uchun muljallangan hovuzchalar sirti suvga chidamli mahsus qorishmalar bilan qoplangan.

SITORAI MOHI HOSA

Buxorodagi mangitlar sulolasining 3 avlodiga mansub saroy-bog’. Buxorodan 4 km shimolda joylashgan. Dastlabki binolar Nasrullohon (1826-1860 y.) va Muzaffarhon (1860-1885 y.) hukmronligi davrida qurilgan. Abdullahadhon hukmronligi davri (1885-1910y.)da saroy va hushmanzara bog’ barpo etilgan. Amir Olimhon hukmronligi davri (1910-20 y.)da yangi saroy qurilgan. Saroy maydoni 6,7 ga bo’lib, eski saroy, g’isht to’shalgan 3 hovli va ko’pgina honalardan iborat. Bu erdagi Amir Muzaffarhon mehmonhonasi kengligi baland zali, ikki tomonidagi bolhonali ayvonlari, evropacha eshik va derazalari bilan ajralib turadi. Uch qismga bo’lingan murabba tarhli honani tashkil etuvchi Abdulahadhon honasi bir biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir hilda bezatilgan 2 zal o’rtasidagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g’arb tomoniga shohnishin taht o’rnatilgan. Eski Saroy sharqidagi amir Olimhonning bosh qarorgohi- Yangi Saroyga ravoqli muhtasham darvoza o’rnatilgan. Darvoza ustidagi ravoq O’rta Osiyo binolariga hos bo’lmagan shaklda ishlangan, yon qismlari sirlangan, to’q qizil, ko’k, gunafsha va havo rang koshin bilan qoplangan. An’anaviy sirkori parchinlar bilan birga Rossiyadan keltirilgan kafel qoplamalardan ham foydalanilgan. Darvozaning tepa qismiga ganchdan guldun shaklidagi bezaklar

ishlangan. Yog'ochdan qilingan ikki tabaqali darvozaga milliy naqshlar o'yilgan va mis gul mihrar bilan mustahkamlashib, nafis guldor zulfin o'rnatilgan. Darvozahonadan tashqi hovliga o'tiladi. Hovlinng 3 tomoni ayvon bilan o'ralgan. Darvozadan kirishda o'ng qo'lda favvora bor. Katta ayvon shimoliy tomonida esa oynavand ayvon, kutish honasi va amirning qabulhonasi joylashgan. Binoga kiraverishda g'ozg'on marmaridan ishlangan sher haykallari bor. Amir qabulhonasi dahlizi devorlari ganchdan naqshdor qilib bezatilgan. Namoyonlariga naqqosh usta Husanjon guldon va gullar naqshini ishlagan.

Oqsaroy ichkarisi SHarqning jimjimador, nafis naqshlari jozibador gullari bilan uyg'unlashgan. Devorning ko'zgulardan iborat bo'lishi va gulganchdan ishlangan bezaklarning ko'zni qamashtiradigan darajada oqligi honani ko'rkam qilib ko'rsatadi. Oqsaroy 2 yil mobaynida Usta SHirin rahbarligida qurilgan va pardoqlangan. Yangi Saroy rus muhandislari Sakovich va Margulis rahbarligida qurilgan. Qabulhona honalari Evropa uslubida biridan ikkinchisiga o'tiladigan qilib qator joylashtirilgan. Yangi Saroyning kiraverishi boqqa tutashib ketgan. Bog'ning shimoliy qismida haram joylashgan. Uning g'arbida haram hizmatkorlari uchun honalari bo'lgan kichik hovli bor. Haram ikki qavatli va yarim doira shaklida qurilgan. Mahalliy me'morlik an'analarini o'zida saqlab qolgan. Bog'ning qoq o'rtasida 8 honali ko'shk bor Uning honalari 8 qirrali qilib qurilgan mehmonhona atrofida joylashgan. Oshhonaning devorlari, tilla va kumush suvi yugurtirib, bezatilgan. Ko'shkning janubida to'g'ri burchakli, devori toqchali katta hona bo'lgan. Qolgan boshqa honalar yotoqhona va hizmatkorlar uchun mo'ljallangan. Bog'ning janubida ikki qavatli masjid, katta hovuz qurilgan (1917-1918 y.). Hovuz kulrang g'ozg'on marmari bilan qoplangan. Binoning ichida uzun yo'lak bo'lib, honalari faqat bir tomondan shamollatilgan. Hozirgi kunda Sitorai Mohi Hosada Buxoro davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqhonasi, dam olish uyi va bolalar sanatoriysi joylashgan.

2.2§. Abdulxoliq G'ijduvoniylar majmuasi

Abdulxoliq G'ijduvoniylar (1103–1179)

Abdulxoliq G'ijduvoniylar naqshbandiylar tariqatida xojalar silsilasining asoschisi hisoblanadi. Uning ta'limoti, ya'ni tasavvuf sohasida u qoldirgan yo'l-yo'riqlar, odob va qarashlar yuksak ahamiyatga ega.

Abdulxoliq G'ijduvoniylar kim edi, xojalar tariqatiga qanday hissa qo'shdi va hozirgi zamonda u qoldirgan ta'limotning ahamiyati nimada?

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar 1103 yili G'ijduvon shahrida tug'ilib, 1179 yili o'sha joyda hayotdan ko'z yumgan. U Xoja Yusuf Hamadoniylarning to'rtinchi xalifasi sifatida xojalar tabaqasining sarhalqasi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ayrim o'rinlarda xojagon, ya'ni "xojalar" so'zi o'rnida "xojagonlar" deb ishlatiladi. Bu to'g'ri emas, albatta. Chunki "xojagon" so'zi "xoja" so'zining ko'pligi bo'lgani sababli "xojagonlar" jam'uljam' — ko'plikning ko'pligi shaklida to'g'ri emas va hech qanday ortiqcha ma'noni ham ifodalamaydi. Shuning uchun "xojagon" va "xojalar" so'zlarini ishlatish kerak.

Shayxning otasi Abdulmajid nomli mashhur bir shaxsiyat bo'lib, molikiylar mazhabi asoschisi Imom Molik ibn Anas avlodlaridan bo'lgan ekan. U ilgari Rum deb atalib kelgan Turkiya hududida yashab zohiriylar va botiniylar ilmlari bilan mashg'ul bo'lgan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, hazrat xojaning onasi usmoniylar sultonlari avlodidan bo'lgan. Ular zamon taqozosiga ko'ra o'z oila a'zolari bilan Buxoroga ko'chib kelib, G'ijduvonda istiqomat qilganlar. Farzandlari Xoja Abdulxoliq Buxoro shahrida tahsil olgan va o'z ustozlaridan tasavvufga tegishli ta'limotlarni o'zlashtirgach, ma'naviylar kamolot sari harakat qila boshlagan.

Xoja Yusuf Hamadoniylar Buxoroga kelganda, G'ijduvoniylar u kishi bilan uchrashib, suluk usullarini kengroq miqyosda undan o'zlashtirib oladi.

O'shanda yassaviylar tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviylar ham Xoja Yusuf Hamadoniylar bilan suhbatda bo'lib, irfon va tasavvuf ta'limotini kengaytirish bilan mashg'ul edi. Keyinroq har ikkala so'fiylar ikki yo'nalish asoschisi bo'lib, biri

yassaviya tariqatiga asos soladi, ikkinchisi xojalar tariqatining tamal toshini qo'yishga muvaffaq bo'ladi.

Tariqat yoki tariqa o'zi nima? "Tariqat"ning lug'aviy ma'nosi yo'l-yo'riq. Tasavvuf ilmida irfonga tegishli bo'lgan ko'p yo'nalishlardan muayyan bir yo'nalishni bildiradi. So'fiy komil imonga ega bo'lib, aynul-yaqin yoki haqqul-yaqinga erishish uchun o'sha yo'lni tanlab oladi.

Tasavvuf ahliga tegishli imon taqlid asosida erishilgan yoki aqlu istidlol orqali hosil bo'ladigan imon emas. Negaki, bunday imon shak-shubhaga o'rin qoldiradi, ammo so'fiyning imoni uning atrofiga mavjud bo'lgan narsalar, yuz berib turadigan hodisalardan ta'sirlanmaydi va hech qanday shubhaga yo'l qo'yilmaydi. Imom Rabboniy "Maktubot" kitobida aytganidek, olimlar imoni bilan komil shayxlar, ya'ni tasavvuf ahlining imoni o'rtasidagi farq shundan iboratki, olimlarning ma'rifati ilmiy istidlol va mantiqiy uslub bilan hosil bo'lsa, so'fiylar va oriflar ma'rifati — kashfu zavqu shavq, ya'ni vijdoniyot va qalb ishroqi(nuri) orqali hosil bo'ladi. Jaloliddin Rumiy aytganidek:

Poyi istidlolliyon cho'bin buvad,
Poyi cho'bin saxt betamkin buvad.

Ya'ni: istidlol ahlining oyoqlari yog'ochdandir, albatta, yog'och oyoq nihoyat zaif va kuchsiz bo'ladi.

Shariat va boshqa ilmu fanlarni o'rganish yo'llari turli-tuman bo'lganidek, tasavvufda ham turli-tuman tariqalar mavjud. Har bir tariqat o'ziga xos yo'ldan haqiqatga erishmoqchi bo'ladi. Tasavvufdagi mashhur tariqatlardan yassaviya, kubraviya, naqshbandiya, qodiriya, shoziliya, chashtiya, mavlaviya va boshqa ko'p yo'l-yo'riqlarni eslatish mumkin.

Tasavvufiy tariqalar xilma-xil bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bitta, ya'ni haqiqati mutlaqqa erishish, ilohiy zot haqida ma'rifatga ega bo'lib, uning roziligini hosil qilish va ahadiyat zotiga yaqinlashishdir.

Iroqlik tasavvufshunos olim shayx Amin Alovuddin Naqshbandiy ta'kidlashicha,

tasavvuf tariqatlari bir xil bo‘lmasa ham, barchasi bir manba — bir asosdan sarchina oladi. Bu bug‘doy unidan turli-tuman ovqatlar, go‘shu guruchdan xilma-xil taomlar pishirishga o‘xshaydi. Ular bir-biridan har qancha farqli bo‘lmasin, hammasining asosiy manbai bitta, ya’ni bug‘doy yoki go‘shu guruchdir.

G‘ijduvoniygacha zikri jaliy — zikri jahr, ya’ni baland ovoz bilan zikr qilish ma’mul edi. Hozircha ham yassaviya, qodiriya, chashtiya va boshqa bir qancha tariqatlar zikri jaliy — zikri jahr bilan shug‘ullanadilar. Ammo Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni zikrni xafiy shaklda olib borishni tavsiya qilib, ushbu uslubni afzal va shariatga muvofiqroq deb qo‘llagandan keyin zikri xafiy xojalar silsilasi va naqshbandiya tariqatining asoslaridan biriga aylandi.

Naqshbandiya tariqati o‘n bitta so‘z yoki qoida yoxud irfoniy shior asosida qurilgan. Ushbu qoidalar tariqat peshvolari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilib, har biri haqida mufassal ma’lumotlar berib o‘tilgan. Ulardan sakkizta qoida Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniya mansub va uchta qolgani Bahovuddin Naqshband tomonidan belgilangan.

Ta’kidlaganimizdek, naqshbandiylik zikri xafiy — xufyaga asoslangan. Zikr esa, yaratuvchining zoti haqida shunday diqqat va taammul bilan o‘ylashki, zokirning barcha vujudi qalbiga tobe’ bo‘lib uning izidan borsin. Undan maqsad ko‘ngilni nopok tuyg‘ular, yomon maqsadlar va shahvoniy istaklardan pokizalab, har doim Olloh yodi bilan mashg‘ul qilib turishdir. Yaratuvchiga faqat shu yo‘ldan yaqinlashish va haqqa erishish mumkin. Ko‘ngil pokizalanib sayqal topgandan keyin ilohiy nur unga tajalliy qiladi(porlaydi), ya’ni ko‘zguda quyosh qanday aks etsa, ilohiy nur ham solik qalbiga shunday jilva qilib huzur hosil bo‘ladi. O‘shanda zikr to‘xtaydi. Zahiriddin Bobur “Risolai volidiya” tarjimasida ifodalaganidek:

Ayni mazkur bo‘lur zokir til.

Alovuddin Naqshbandiy ta’kidlashicha, bunday yaqinlashish zotiy qurb, ya’ni ilohiy zotga yaqinlashish emas, balki ilohiy nur bilan botiniy taqarrub — ruhan yaqinlashishdir. Bunday yaqinlikni faqat qalb ko‘zi bilan ko‘rish mumkin, bosh

ko‘zi bilan emas. Bu ishroq, ya’ni qalb ko‘zi bilan ko‘rish deb ataladi. Bu tushda ko‘rgan kabi holatlarga o‘xshaydi, albatta, uyquda biz ko‘zimiz bilan ko‘rmaymiz. Navoiy asarlarida ham ko‘ngil ko‘zgusi dunyoviy istaklar va mosivo, ya’ni yaratuvchi yodidan boshqa narsalardan poklanib sayqal topgandan keyin unda ilohiy nur tajalliy qilishi — porlashiga munosib bo‘ladi. U “Xamsa”da (“Saddi Iskandariy”) Olloh inson qalbini ilohiy sirlar xazinasi qilib, unda tajalliy etgandan keyin, barcha farishtalar unga qarab sajdaga bosh qo‘ydilar, deydi:

Qilib ko‘nglini roz ganjinasi,
Yuzin aylading zot oyinasi.
Anga aylogach nuri husnang zuhur
O‘qubon malak xayli “Ollohu nur”.

Shayx Amin Alovuddin Naqshbandiy o‘zining juda ko‘p ishonarli manbalarga asoslanib yozgan “Tasavvuf haqiqati va naqshbandiya tariqati” nomli qimmatli kitobida Bahovuddin nima uchun “naqshband”, deb laqab olganligini tekshirib uning ota-bobolari naqqosh ekanligiga doir rivoyatni noto‘g‘ri deb hisoblaydi. Uningcha, “naqshband”ning ma’nosi ma’naviyatdan kelib chiqadi. U qalblar naqqoshi bo‘lgan, ya’ni Olloh naqshini o‘z muridlarining qalblarida ma’naviy jihatdan naqsh qilib qoldirgan. Bir naqshbandiy shoir bunday degan edi: Ey, naqshbandiya tariqatida mening yo‘ldoshim, Haq zikrini qalbingda mustahkam o‘rnatgin, naqsh qilgin.

Bahovuddin laqabi “Naqshbandiy” emas, balki Naqshbanddir. Naqshbandiy deganda uning tariqati yoki tarafdorlari tushuniladi.

Abdulxoliq G‘ijduvoni, Ali Safiy ta’kidlashicha, xojalar tariqatining boshlovchisi edi. Ushbu tariqat avvallari unga nisbat berilib xojalar tariqati deb atalardi.

Naqshbandiya tarafdorlari aytishlaricha, bu tariqat ilgari hazrat Abu Bakrga mansubligi uchun “as-Siddiqiya” deb atalardi, so‘ngra Boyazid Bastomiya nisbat berilib “Tayfuriya” deb atalgan, uning ismi Tayfur bo‘lgan. Ushbu ta’limot XV asrga kelib Bahovuddin Naqshband nomi bilan ulanib ketib “Naqshbandiya” deb

atalgan.

Xoja Bahovuddin Naqshband o'zining ruhiy safarlarini bayon etishda aytib o'tganidek, ruhiy va ma'naviy tarbiyani Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyaning olgan ekan.

Mashhur tasavvufshunos olim Usmon Turar qayd etishicha, Bahovuddin Naqshbandning haqiqiy shayxi, uni "uvaysiylik" yo'li orqali tarbiyalab, kamolga yetkazgan Abdulxoliq G'ijduvoni bo'ladi. Bo'lmasa, Bahovuddin bilan G'ijduvoni orasida Shayx Samosiy, Ali Romitoni, Mahmud Anjir Fag'naviy va Orif Revgariy turadi. G'ijduvoni va Naqshband yashagan davrlar orasida [200](#) yildan ko'proq fosila mavjud.

Bahovuddin Amir Kuloldan xalifalikni olgandan so'ng Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi yassaviy shayxlarining huzurida ko'p yillar qolib ulardan kasbni ilmu ma'rifat etdi.

Bahovuddin Naqshbandning manqabatlarini yozgan Muhammad Boqir, Xojaning shogirdlaridan biri bo'lmish Xoja Alovuddin Attordan naql etishicha, u bunday degan ekan: "Men olti yil turkiy mashhur mashhoixlardan biri bo'lgan Xalil Oto xizmatida bo'ldim. Xalil Oto (Sulton Xalil) Movarounnahr podshohligiga ko'tarilganidan keyin ham, olti yil uning mulozimati bo'lib xizmat qildim, shohlar xizmatida bo'lish odobini o'rgandim, uni ko'p hurmat qilardim, bo'shlik paytida uning xos mahrami (suhbatdoshi) men edim. U menga ba'zan qattiqqo'llik va ba'zan esa lutfu marhamat ko'rgazardi".

Shu yo'sinda Bahovuddin Naqshband o'n ikki yil davomida Xalil Oto (Sulton Xalil) bilan tasavvufiy munosabatlardan tashqari, eng muhim dunyoviy ishlardan biri, ya'ni davlatni idora qilishda ishtirok etib, o'z amaliy va hayotiy falsafasi uchun o'rnatib bo'lib keldi.

Usmon Turar ifodasicha, naqshbandiya quyidagi to'rtta asosiy qoidaga asoslangan: shariat yo'li bilan zohirni poklash, tariqat orqali botinni poklash, haqiqat yo'lidan ilohiy qurb (yaqinlik)ga erishish, ma'rifat orqali Ollohga erishish.

Uning ta'kidlashicha, bu tariqat Naqshbanddan keyin Xoja Ubaydulloh Ahrorgacha naqshbandiya, Xoja Ahrordan Imom Rabboniygacha naqshbandiyai-

ahroriya, Imom Rabboniydan Shamsiddin Mazhargacha naqshbandiyayi-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolid Bag‘dodiygacha naqshbandiyai-mazhariya, Mavlono Xolid Bag‘dodiydan keyin xolidiya nomlari bilan atalib kelgan.

XV asrda Afg‘onistonga mansub bir kishi “Mujaddidi alfi soniy” (Ikkinchi mingyillikning tiklovchisi) va “Imomi Rabboniy” laqablari bilan shuhrat qozongan shayx Ahmad Foruqiy Naqshbandiy Ahroriy Sarhindi naqshbandiya tariqatining bir shu‘basi sifatida “Mujaddidiya” tariqatiga asos soldi. Imom Rabboniy [1650](#) yili Hindistonning Sarhind mintaqasida tug‘ilib, [1703](#) yili hayotdan ko‘z yumgan. U zohiriy va botiniy ilmlarni o‘zlashtirgandan keyin Dehliga borib xojalar tariqatining idamachisi Xoja Muhammad Boqiy huzuriga musharraf bo‘ladi. Shayx Muhammad Boqiy olti vosita bilan Xoja Bahovuddin Naqshbandga yetib borardi. Imom Rabboniy oz muddat ichida undan ko‘p narsalarni o‘zlashtirib olib, naqshbandiya tariqatining homiysi sifatida ish boshladi.

Shayx Ahmad Sarhindi o‘zining [535](#) maktubi majmuasi (Maktuboti Imomi Rabboniy) bilan ushbu tariqatning sharhlovchisi, rivojlantiruvchisi va tarqatuvchisi bo‘lib xizmat qildi, uning keng ko‘lamda Hind yarimoroli va Afg‘onistonda tarqalishi uchun zamin yaratib berdi. Maktubot kitobi ayrim tillarga tarjima qilinib katta adadlarda nashr etilgan, jumladan, [1228](#) hijriyda Toshkent Portsev toshbosmasida ham nashrdan chiqqan.

Imom Rabboniy o‘z zamonasining mashhur davlat va siyosiy arboblari, o‘z xalifalari, buyuk olimlar va mutasavviflar bilan keng aloqa o‘rnatib Hindistondan turib Afg‘oniston, Turkiston va boshqa joylarga maktublar yozib turar, turli mavzulardagi murakkab masalalar, irfoniy va aqidaviy muammolarni yechib berishga harakat qilardi. Masalan, [268](#) maktubini turkistonlik Xoja Muhammad Qosim Amkanagiya yozib, unda naqshbandiya tariqatining beshigi bo‘lgan Movarounnahrda topilgan ayrim bid‘atlar borasida achinib so‘zlaydi.

Afg‘onistonda naqshbandiya ta‘limoti ta‘sirini, ayniqsa, adabiyot sohasida XV asrdan boshlab hozirgi davrgacha ko‘rish mumkin. Masalan, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy she‘riyatida, bugungi Afg‘oniston ayrim shoirlarining asarlarida

ushbu ta'limot keng ko'lamda o'z aksini topgan.

Afg'onistonda naqshbandiylikning ashaddiy muxlislaridan biri Qori Muhammad Azim Azimiy Jo'zjoniy o'zbek va dariy tillarining yetuk shoiri sifatida o'zidan ko'p asarlar qoldirgan. Uning she'rlar devoni [1993](#) yili Amir Alisher Navoiy Farhangiy anjumani tomonidan Jo'zjon davlat matbaasida katta hajmda nashrdan chiqqan.

Ustoz Azimiyning devonida silsilai oliyai naqshbandiyaga (naqshbandiylikning oliy silsilasi) atab bir necha qasida va qit'a she'rlar mavjud. Birinchi qasida 28 bayt, ikkinchisi 52 baytdan iborat. 35 baytni o'z ichiga olgan uchinchi qasida shoirning ustoz naqshbandiya vakili xalifa Abdulmajid Maxdunga bag'ishlangan. To'rtinchisi 16 baytdan iborat bo'lib, Mavlono Abdulmajid vafoti munosabati bilan yozilgan. Beshinchi qasida mashhur xalifa Objo'shning o'rinbosari darzoblik marhum So'fijon xalifa — Shimol mintaqasidagi naqshbandiya tariqatining yirik vakili va xalifasi vafoti munosabati bilan yozilgan. Shoir uni valilik xazinasining soqchisi va naqshbandiylar tariqasining rahbari deb madh etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, naqshbandiya tariqati faqat Hindiston yarimoroli, Afg'onistonda emas, balki Iroq, Suriya, Turkiya va Eron hududlarida ham keng ko'lamda tarqalgan. Uning nomi bilan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar ismi naqshbandiya tariqatining ajralmas bo'lagi sifatida o'z mavqeini saqlab kelgan.

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining [2007](#) yil 33-sonidan olindi.

XOJA ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY O'GITLARI HAQIDA

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar hozirgi zamonda dunyo jamoatchiligi tomonidan eng ilg'or demokratik tamoyillarga amal qiluvchi, ilohiyot va dunyoviylikni insonparvar nuqtalarda tutashtirgan, jahonda eng ko'p muxlisga ega bo'lgan Xojagon-naqshbandiya tariqati asoschisidir.

Mutafakkirning G'ijduvon shahri tub aholisi tilida faol qo'llanadigan nomi —

Xojayi jahon. Xaloyiq ushbu tabarruk nomda ajib hikmat ko‘radi. G‘ijduvon shahrining obod va farovon makonligidan, bozorlarning to‘kin-sochin va arzonligidan bahramand tub aholi, qo‘shni-qarindoshlar, olisdan kelgan mehmonlar — bari ushbu shahardagi fayzu futuh, xayru barakani piri buzrukvor — Xojayi jahon nomi bilan bog‘lab gapiradilar. Xo‘sh, qaysi jahonshumul xizmati tufayli bu zoti bobarakot ona-shahri G‘ijduvon shuhratining jahoniy mavqega ko‘tarilishiga, Vatani nazarkarda maskanga aylanishiga sabab bo‘ldi?

Avvalo, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylash mashg‘ul bo‘lgan ilm va tafakkurning jahonshumul ahamiyati uning ilohiy mohiyatida, bu porloq shaxsiyatni Olloh yorlaqaganligida. U Xojayi Xizr siylovi bilan Haq ahlining sarvari maqomiga ko‘tarildi.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” asarida shunday naql keltiradiki: “Agar yer yuzida Xoja Abdulxoliq farzandlaridin biri bo‘lsa erdi, Mansur hargiz dor ostiga bormag‘ay erdi”. Bu naqlda qanday hikmat bor? G‘ijduvoniylash ta‘limotida mashhur Mansur Hallojni o‘limdan saqlab qolishi, tasavvuf dunyoqarashi bilan mutaassib aqidaparastlikni murosaga keltirishi mumkin bo‘lgan qanday hurfikir va hayotbaxsh g‘oyalar bor edi?

“Qissayi Mashrab”da shunday ma‘lumot bor: “Ma‘niyi Ofoq uldurki, “Qutbul Olam” degan bo‘lur. Dunyoda ikki Ofoq o‘tubdurlar: birlari Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylash, yana birlari hazrati Ofoq xo‘jamdurlar”. Bu naqlda qanday sir bor? Xojayi jahon qanday umumbashariylash g‘oyalar bilan “Ofoq”, ya‘ni “Qutb ul Olam” unvoniga sazovor bo‘lganlar? Bundan tashqari, mazkur naqlning qalandariylashka oid manbada kelishi ham qiziq. Demak, G‘ijduvoniylash g‘oyalari faqat xos tariqat a‘zolarigagina emas, balki qalandarlik suluki talablariga ham mos kelarkan-da.

Tafakkur dunyosida “hujjatul-islom” degan unvon ham borki, u jahonda atigi ikki mutafakkirga nisbatangina qo‘llangan. Biri — Imom G‘azzoliylash, ikkinchisi — Xoja

Abdulxoliq G'ijduvoniylar. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" asarida G'ijduvoniylarga nisbatan "alarning ravishi tariqatda hujjatdur" deydi. Xo'sh, tariqat piri G'ijduvoniylarning ravishi, ya'ni yo'li, fe'l-atvori, tabiat-tiynati, g'oyaviy tizimining tariqatda hujjat bo'lishga sazovor qanday xosiyatlari mavjud?

Avvalo, tariqat va zikrning mohiyatini muhtasir izohlash zarur. Ma'lumki, islomiy tasavvufiy ta'limot nuqtai nazaridan insonning ma'naviy-ruhiy komillikka erishishi shariat, tariqat va haqiqat bosqichlaridan iborat. Islom yoki xudojo'ylik yo'liga kirgan solik, ya'ni yo'lovchi, izlovchi mana shu bosqichlarni bosib o'tishi zarur. Bu bosqichlar bir-birini taqozo etadi.

Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmaydi, tariqatsiz haqiqatga erishilmaydi. Tariqat — shariat qonun-qoidalarini bajarish va Olloh taolo muhabbatiga muvassir bo'lish yo'li. Shariat — nazariya, tariqat amaliyotdir. Haqiqat — maqsad, tariqat — uslub, faoliyat shaklidir. Tasavvuf ta'limoti tadqiqotchilari ta'riflaricha: "shariat yong'oqning po'chog'i bo'lsa, tariqat po'choq ichidagi po'stloqdir, haqiqat esa po'stloq ichidagi mag'iz"; "shariat — yer, tariqat mazkur yerda ungan daraxt, haqiqat esa shu daraxtning mevasi"; "tariqat — fano, ya'ni o'zdan kechish, haqiqat — baqo, ya'ni botil (buzilgan, behuda) ishlardan kechish, haq ishlarga bog'lanmoq"; "shariat — qonun, tariqat — yo'l", "qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi, "yo'l" ko'ngilni poklab, ruhni nurlantiradi".

G'ijduvoniylar tariqatining olamshumul, umumbashariy mohiyat kasb etishida bu tariqatning zikr uslubi katta ahamiyatga ega. Ayonki, G'ijduvoniylar tariqatining uslubi — xufya zikr, ko'ngil zikridan iborat bo'lgan. Xo'sh, zikrning mohiyati nimayu ko'ngil zikrining xosiyati qanday? Zikrni tasavvuf ahli maqomlar sayri jarayonida fikriy-ruhiy quvvatni, tafakkur malakasini shakllantirishning eng yaxshi yo'li deb bilganlar. Zikrning mohiyati Tangri taoloning nomini yod etishdir. Tasavvufdagi bu hol Qur'onning "Meni yod etinglar, toki men sizlarni yod etay"

mazmunidagi oyatidan oziqlangan. Zikr soʻfiyga shunday imkoniyat berganki, u kamoli mushohadaga berilgan. Zikr holatida soʻfiy butun ruhiy qobiliyatini Ollohning nomini zikr etishga safarbar etgan, unga nisbatan shu qadar ichki shavq paydo qilganki, qolgan hamma narsani unutish darajasiga yetgan.

Mutafakkir oʻz ruboiysida zikrni bunday talqin etadi:

Jono, labam az zikri tu xomoʻsh mabod,
Yodi tu zi xotiram faromoʻsh mabod.
Har jo zi shumo ba lab hadise goʻyand,
Zarroti vujudi man ba juz goʻsh mabod.

Ruboiy Ergash Ochilov tarjimasida bunday jaranglaydi:

Bir lahza tilim tin olmasin zikringdan,
Bir lahza dilim toʻxtamasin fikringdan.
Har uzvi quloqqa aylanar jismimning
Har qayda soʻz ochsalar sening zikringdan.

Demak, soʻfiyning vujudi, ruhi, fikru zikri Olloh yodi bilan boʻlishi lozim. Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniyni koʻngil zikri juda katta tarbiyaviy, maʼrifiy, insonparvarlik mohiyatiga ega. Avvalo, u soʻfiyni xoʻjakoʻrsincha, namoyishkorona “taqvodorlik”dan saqlaydi. Koʻngil zikri riyodan xoli ekanligi bilan ham ahamiyatli. Ikkinchidan, hufya zikr eng samimiy va oliy muhabbat koʻngilda kamol topishini taʼminlaydi. Uchinchidan, zikri xafiy inson koʻnglini eng moʻtabar sajdagoh darajasida ilohiylashtiradi. Chunki Olloh koʻngil zikriga moyil har bir inson qalbida yashaydi. Gʻijduvoniyni koʻngil zikri milliy istiqlol mafkuramizdagi “Olloh qalbimizda, yuragimizda” gʻoyasi bilan hamnafas. Toʻrtinchidan, dunyoviy muhabbat singari, Olloh muhabbati ham elga dasturxon qilib yoziladigan tuygʻu yoxud shon-shuhrat vositasi emas. U bilan baralla bong

urib dovrug‘ taratmasdan, uni ko‘ngil mulki, sehrli-sinoatli tuyg‘u sifatida pinhon saqlagan ma’qul.

Navoiy talqinicha, ko‘ngil zikri karomati tufayli, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyni insoniyatga ibrat va saboq bo‘lgan fazilatlaridan biri shuki, ular “bid’at va havo muxolafatida qadam urubturlar va pok ravishlarin ag‘yor ko‘zidin yashurubturlar”. Endi mushohada qilib ko‘raylik-chi, mashhur Mansur Halloj ham “pok ravishin ag‘yor ko‘zidin yashirsa”, “Anal — haq!” deb baralla ayyu hannos solmasa, zinhor dor ostiga borarmidi? Anglashiladiki, odam faqat o‘z aybinigina yashirib yurmasdan, pok xislatini ham pinhon tutgani ma’qul. Bu, birinchidan, pokiza siyratini yomon ko‘zdan asrash, ikkinchidan, dushman g‘ashini qo‘zg‘amaslik, uchinchidan, kamtarlik, ya’ni o‘z fazilatini ko‘z-ko‘z qilib maqtanishdan saqlanish uchun zarur. “Az darun shav oshnovu va z-berun begonavash”, deydi mutafakkir. Ya’ni, ichdan, ko‘ngilning tubida Ollohga do‘st bo‘l, ammo buni sirtingga chiqarishing, muhabbatingni oshkora izhor etaverishing shart emas. Tashqaridan begonavash ko‘rinsang ham bo‘ladi. Xojagon-naqshbandiya tariqatidagi “botinan Haq birla, zohiran xalq birla” bo‘lmoq ravishi ham xufya zikr fazilatidan vujudga kelgan.

Insonning e’tiqodi, qaysi mazhab yoki tariqatni qabul qilishi, zikrning qaysi uslubini tanlashi ixtiyoriy, bugungi huquqiy til bilan aytganda, vijdon erkinligidir. Masalan, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyni ustoz, Shayx ush-shuyux Yusuf Hamadoniyni zikr uslubi samo’, shu ustoz qo‘lida birga saboq olgan maktabdoshi Xoja Ahmad Yassaviy tariqatining uslubi esa jahriya bo‘lgan. Ammo ko‘ngil zikri yo‘lini tutgan G‘ijduvoniyni zikri samo’ni inkor etmagan. U o‘z ruboiylaridan birida: “Inkor makun samo’vu maqbul mador”, ya’ni: “Mayl etma samo’ga, qilmagin ham inkor” deydi. Bu G‘ijduvoniyni dunyoqarashidagi bag‘rikenglik fazilatidan darak beradiki, u ham milliy istiqlol mafkuramizdagi asosiy g‘oyalardan biri — tolerantlikka hamohangdir.

Ma'naviyatimizning tafakkur xazinasiga G'ijduvoniylar hadya etgan g'oyalar, asos solgan tariqati va asarlari bugungi milliy istiqlol mafkuramizning muhim ildizi hamda manbalaridan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar ta'limoti jahoniy shuhrat qozonishiga sabab uning umumbashariy mohiyat kasb etganidadir. G'ijduvoniylar tariqati solikni jamiyatdan tamoman ajralib qolmasdan, tavakkul ixtiyor etib, xalq bilan birga bo'lish va o'z kuchi bilan halol mehnat qilishga da'vat etadi. Ushbu ta'limot talabi shundayki, solik mehnat jarayonida, suhbat va safarda “zohiran xalq birla, botinan Haq birla” bo'lib, o'z tirikchiligi ta'minotini boshqalardan tilamay, o'z harakati bilan qo'lga kiritin. Bu eng halol va hurfikr maslak edi. Uning shartlariga shoh ham, darvesh ham rioya etish imkoniga ega bo'lgan. Bu ta'limot o'z mohiyatida dunyoviylik bilan ilohiylikni muvofiqlashtira olgan. Milliy istiqlol mafkuramizdagi “Dunyoviylik — dahriylik emas” g'oyasi o'z ildizlari bilan ana shu mohiyatga borib bog'lanadi. Mazkur maslakdagi kishilar tirikchilik tashvishlari, san'atu hunar mashg'uloti, dunyo ne'matu mehnatlaridan qo'l uzmagani holda Olloh bilan do'stlashish baxtiga muyassar bo'lganlar. Xojagon-naqshbandiylar ta'limoti shu jihatlari bilan xalqqa yaqin tarzda shakillangan, elning barcha toifayu tabaqalari orasida keng yoyilgan, jahonshumul mohiyat kasb etgan.

XOJA ABDULXOLIQ G'IJDUVONIY AYTGANLARIDAN

Ey, mening o'g'ilginam, senga nasihat qilayin, taqvo (parhezgarlik)ni o'zingga shior qilib ol, ibodat vazifalarini doimo bajar. O'z holatingni har doim kuzatuvchi bo'l. Haq taolodan doimo qo'rquvda bo'l. Xudoi taoloning, Rasulullohning, otanonaning va barcha mashoyixlarning haq-huquqlarini ado qiluvchi bo'лки, bu xislatlar bilan Haq taoloning roziligiga musharraf bo'lursan.

* * *

Xoh oshkora bo'lsin, xoh pinhona bo'lsin, xoh Qur'onga qarab bo'lsin, xoh yoddan bo'lsin, Qur'on o'qishni aslo tark qilma. Qur'onni fikr bilan, qo'rquv va yig'i bilan o'qi. Barcha ishlarda Qur'onga ruju' qilgilki, Qur'on xalq uchun Haq

taoloning hujjatidir.

* * *

Ilm qidirishdan bir qadam ham uzoqlashma, fiqh ilmi va hadis ilmini o‘rgan.

Taqlidchi so‘fiylardan uzoq bo‘lginki, ular din yo‘lining o‘g‘rilaridir va musulmonlarni yo‘ldan uruvchidirlar.

* * *

Hamisha sunnatga amal qil, o‘tmishdagi ulug‘ ulamolarning mazhab (yo‘llar)idan yurginki, har qanday bid’at makruhdir. Yoshlar va ayollar bilan doimiy suhbatda bo‘lma. Bid’atchilar va boylar bilan ulfat bo‘lmaginki, ular seni dindan ayiradilar. Suhbat qursang, faqirlar bilan qur, o‘z yukingni o‘zing ko‘tar, halol yeginki, halollik yaxshiliklarning kalitidir. Haromdan qochginki, aks holda Haq taolodan uzoqlashasan... Halol yeginki, bundan ibodatning halovatini topasan...

* * *

Yaxshi nomga ega bo‘lay desang, nom chiqarma. Nafsing xor bo‘lishi uchun ko‘p safar qil. Mashoyixlarning hurmatini joyiga [qo‘y...Birovning](#) maqtoviga uchma. Birov yomonlasa, xafa bo‘lma. Xalqning maqtashi yoki yomonlashi sen uchun befarq bo‘lsin. Xalq bilan chiroyli muomala qil. Doimo adab saqla. Barcha holatda yaxshiga ham, yomonga ham lutfu marhamat bilan muomala qil.

(“Tariqat odobi”risolasidan)

* * *

Aslida zuhd shundayki, dunyoning tamomi moli uning qo‘lida bo‘lsa ham, dilida molu dunyoga zarracha mehr qo‘ymaydi. Bunday kishi yetuk kishidir. Uning moli dindur.

* * *

So‘radilarki, bemor dilning davosi nima? Shayx — Olloh uning ruhini muqaddas qilsin—buyurdilar: “Uning davosi shuki, ulamolarning suhbatiga intiladi. Ularning xizmatida turadi. Ularning aytganini qabul qilib, mashoyixlar huzurida bo‘ladi. Shundagina uning dilidan dunyoga bo‘lgan muhabbat ketadi”. Rasululloh aytdilar: “O‘lim kelmasidan avval unga tayyorgarlik ko‘ringlar”.

* * *

Rizo — bu shodlikdir. Ya'ni Haq taolo tomonidan neki balo va kulfat yetsa, bunga xushnud bo'ladi. Va ko'nglimiz bu balolarga qarshi e'tiroz qilmaydi, chunki balolar do'stdan kelgandir.

* * *

Dil zikrining to'rtta sharti bor: birinchisi shuki, shayx qaysi tartibda o'rgatgan bo'lsa, shu tartibda aytadi. Natijada "Azkurkum" (Sizlarni yodlayman) so'zining gulidan meva hosil bo'ladi. Ikkinchisi shuki, luqmada ehtiyot bo'ladi, shubhali luqma dilni qoraytiradi, qoraygan dildan esa zikr hosili chiqmaydi.

* * *

Bilginki, dil ibodati muhabbatdir. Chunonchi, Haq taolo buyuradi: "Agar sizlar Allohni sevsalaringiz, bas, menga tobe bo'linglar, shunda Alloh ham sizlarni sevadi". Rasululloh aytadilar: "Kimki Allohning rasulini sevsan, Alloh ham uni sevadi".

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining [2003](#) yil 48-sonidan olindi.

3.1§. Moybo'yoq rangtasvir texnikasi.

Ashyolar: asos sath, qoplamalar (gruntlar) va ularni qo'llash, foydalanish. Bo'yoq taxta (politra), bo'yoqlar, eritgichlar, mo'yqalamlar va ulardan foydalanish hamda to'g'ri saqlash. Parvarish qilish. Matoni romga jo'yali qilib tortish va qoplama surtish. Lesirovka va quyuq surtmalar bilan ishlash. Moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan atroflicha tanishtirish. Uni tashkil etish choralarini ko'rsatish va ashyolardan unumli foydalanish yo'llarini o'rgatish. Moybo'yoq ishlashga tayyorgarlikning nazariy hamda amaliy jihatlaridan habardor qilish. Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama

(grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o'xshash. CHuki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ishlanishi mumkinligidandir.

Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qushiladi. SHunisi ham borki oq rang qo'shilgach bo'yoqning erkinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. SHunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoq taxta (politra), mo'yqalamlarning turlicha kattalikdagi xillari, mastixin va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir desak xato bo'lmaydi. Uning qoplamasi (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib u quyidagichadir. 5 foizli yelim (jelatin, baliq yoki duradgorlik yelimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'ni - maxsus oqartirilgan rangtasvir yog'i quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi. YOg' va kukunning nisbati shunday bo'lish kerakki u tayyor idishga solib chiqariladigan moybo'yoqdan suyuq bo'lmasin. SHunda uni bemalol mato sathiga mastihin bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 hafta quritilgach

g'adir-budir yerlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam (fleyts) bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulda tayyorlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo'lishi shart.

«Yelimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi. 1 Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani kurigach kumkogoz bilan mato usti tekislanib olinadi, sung ikkinchisi surtiladi. SHundn sung elim aralashmasi bur va ok bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issikda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bulib kolgudek bulsa, usha elim aralashmasidan kushiladi. Bunday qoplama 2-3 marta kavatma-kavat qilib surtiladi. Ular oraligida kurishi uchun ma'lum vakt bulishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular kuprok ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida kul keladi. Moybo'yoqda ukuv-mashklarni bajarishda rang hillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda kup rang hillaridan bilib-bilmay ishlatish yahshi samara bermaydi.

Tabiatda ettita asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular kizil, noranji, sarik, yashil, havo rang, kuk, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan tahtada (politrada) bulishi juda zarur rang hillari esa kizil, sarik, kuk bo'yoqdir. CHunki ular boshka kolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil bulmaydi. Bularning aralashmasidan kolgan juda kup ranglarni chikarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto kora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Fakat kaysi rangni bir-biriga kancha mikdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va ukuv bulishi kerak.

SHuni ham ta'kidlab utish kerakki tabiatda absolyut ok va absolyut kora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi kandaydir bir rang tovlanishida buladi. Masalan koraning jigarrangga, kukka, yashilga moyil ekanligini kurishimiz mumkin. Ok rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning tuk-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash

tehnikasi juda kulaydir. SHu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshka bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq tehnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning kandy turlari va ulchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish kup foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapalok va dagal mo'yqalamlarni kullash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar kushib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bulishi mumkin. Moylirogi bo'yoqni sekin kurishi uchun yahshi vosita bulib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin kuriydi. SHu sababli uzok muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda kulaylik yaratadi.

Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday kilinganda ishning bo'yoq katlami tezrok kuriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

SHuni ham ta'kidlab utish kerakki, moybo'yoq tehnikasida rang koriladigan mahsus tahtacha (politra)ning yuzasida bo'yoqlarni kandy joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issik-sovuk ranglarga ajratib, shu bilan birga tuk-ochligiga karab ajratib joylashtirilishi mumkin. Ok bo'yoq odatda urtada yoki ranglar katorining boshlanishida buladi. Agar har safar bir hil joylashtirilsa, rassom shunga urganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati kulay buladi.

Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning kup urganilishi kerak bulgan tomonlari bor. Ularning barchasi kup mashk qilish orkali urganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashk ilish natijasida oshadi. Bunda mahsus adabiyotlarni mutoala qilish ham zur vositadir.

3.2. Tasviriy san'atda ranglar tushunchasi

«Rangtasvir - tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin», - deb aytgan edi K.F.Yuon.

Manzara etudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och-to'qligi va to'yinganligi orqali munosabatlarni ko'rsatishga erishiladi. Turli- tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlari qurilishini aniqlaydi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta sosiy alomati - rang-tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi.

Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglari ongimizga singib boradi (paxta - oq, o'tlar - yashil, osmon - havorang, dengiz - ko'k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo buyum va narsalardagi asosiy rang turli yorug'lik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta'sirida buyumning rangi turlicha ko'rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko'kimtir-yashil tusga kiradi, yashil muhitda - pushtisimon, sariqda esa - ko'kimtir bo'ladi.

Qizil qog'ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog'oz ustiga qo'yilsa, kulrang qog'oz yengil yashilsimon rangda bo'lib ko'rinadi. Agar qizil doiraning o'miga yashilni qo'ysa, kulrang qog'ozda qizg'ish tus hosil bo'ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tulari (qo'shimcha) hosil bo'ladi. Shu sababli ham tabiatda «xira» neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdagi soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to'yingan. Yonma-yon boigan qo'shimcha ranglar o'zining yorqinligini kuchaytiradi (qo'shimcha va qarama-qarshi ranglar - bu qizil va yashilsimon — havorang, zarg'aldoq va havorang, sariq va ko'k, sarg'ish-yashil va

binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o'zgaradi (havo perspektivasi).

Yuqorida sanab o'tilgan ta'sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo'yicha ham, yorug'iigi va to'yinganligi bo'yicha yoki uchala xususiyatlar bo'yicha bir vaqtda o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgargan rang endi buyumning asosiy rangi emas, balki u shartlidir.

Manzarani tasvirlash qonuniyatlari to'g'risida Florensiyalik buyuk rassom Leonardo da Vinchi o'z risolalarida ko'z oldida turgan manzarani to'g'ri tasvirlash mahorati qonuniyatlarini bay on qiladi, shuningdek, tasvirda yorug'iik va soya mutanosibligi qoidalarini batafsil tushuntirib beradi. Tabiatning shunday bir ajoyib qonuniyatiga e'tibor qiladi: olis masofadagi narsa nafaqat kichrayib, balki rangi ham birmuncha xiralashgan tarzda ko'rinadi. Shunga asosan, ulug' rassomning nazariyasiga ko'ra, manzarani tasvirlashda uzoqroqdagi narsalaming shaklini kichraytirib chizish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Oldinda, birinchi ko'rinishda turgan narsalami o'ziga mansub tabiiy bo'yoqda tasvirlash, orqaroqdagi manzarani esa yengilgina xira ko'rinishda, nim havorang bo'yoq bilan tasvirlash zarur. Leonardo da Vinchi mo'yqalamiga mansub sehrli manzaralarda ana shu qonuniyat yaqqol aks etadi.

Buyumlaming shakl va ranglarini haqiqiy va tabiiy holatda ko'rish va qabul qilish odatini ruhshunoslar odatiy ko'rish deb atashgan. Insonlar buyumlami ko'rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dogiarini ko'rishadi, balki narsalaming haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qiladi.

Tajribali rassomlar yorug'iik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlami ham bo'yoqlar vositasida mohirona tasvirleydilar.

Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlami ko'zdan kechirsak, hammasida ko'kimtir - yashil tuslar yig'indisini ko'ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg'ish - olovrang yoki qizg'ish koloritni ko'rish mumkin.

V.Serov, I.Repin, M.Nabiyev, O'.Tansiqboyev, R.Ahmedov, A.Mo'minov, I.Haydarov, P.Benkovlaming ko'plab asarlarida sun'iy elektr yorug'iigi, quyosh

botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarning yuqori malakada tasvirlanganligining guvohi boiamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavha koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug'lik manbayi bilan yoritilganligiga bog'liq.

58. Sh.Abdurashidov. Yoshlik.Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko'rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko'rishga yordam beradi», - deya qat'iy maslahat bergan.

Shu yerda ranglar orqali insonning xarakterini tasvirlash xususiyatlari haqida maslahatlar keltiramiz. Sh.Dunasariy o'z risolasida inson qiyofasiga berilgan ranglar orqali uning xarakterini bilish yuzasiga fikrlar keltiradi.¹ Agarda yuzi qoramag'iz rangda bo'lsa, qo'rqqoq va g'am-anduhga botgan boiadi. Yuzi qizil rangda boisa, mard va bisyor g'azabnok boiadi. Yuzlari oqish rangda boisa, ojiz va kamquvvat boiishi mumkin. Olovday qip-qizil rangda boisa, u jinni sifat boiadi. Agarda yuzi qorayishga moyil sariq rangda boisa, bemor va behad ranjga botgan boiadi va biroz qizaruvchan rangda boisa, sharm-hayoli boiadi.

Manzaraning rangtasviri - rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir.

Tabiat benihoya jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviri san'atning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Go'zal manzara asarlar o'zining nafosatli ta'siri bilan insonni ma'naviy boyitishga erishadi.Ona tabiat qo'ynida boiish ijodiy fikrlar tugilishi va ruhlanishning o'zgannas manbayi hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o'sha muhitni chuqur o'rganmay, tahlil etmay, xayolan tasvirlasa, bu ish soxta chiqib, tomoshabinni o'ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatning maium holatini rangli va tusli xususiyatlarini to'laqonli yetkazishga o'rgatadi.

Dala amaliyotida ijod qilish xona ichkarisida ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yorug'likni hosil qiluvchi yorug'likning ko'pligi, reflekslarning turli- tumanligi, manzara obyektlarining kuzatuvchidan yiroqligi, yoritilishning tezlik bilan

almashuvi, yil fasli va ob-havoning turli holati - bulaming hammasi yosh rassom uchun yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etudining muhim afzalligi - tabiatning ma'lum holatini, yoritilganligining havo y muhit ta'sirini, ma'noli makonni yetkazishdir. Manzara tasvirining bunday sifatlariga rassom havo perspektivasi qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash usuli, umumiy tus va rang holatini to'g'ri topish yordamida erishadi. Manzara ko'rinishlari va narsalami rang och-to'qligi va to'yinganligi bo'yicha taqqoslash, solishtirish, ulaming naturadagi farqlarini belgilash - bular etudning rangli munosabatlarini to'g'ri ifodalashda asos qilib olinadi. Manzara etudini mahoratli tasvirlash - demak, uning rang munosabatlarini naturada ko'rinayotganday o'xshatib bajarishdir. Bunday talablar natyurmortning rangli tasvirida ham asos boigan. Manzara etudining birinchi mashqlaridanoq naturani haqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to'qligi va to'yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo'yoqlar doirasiga o'tkazadi, so'ngra tomoshabin etuddagi ko'rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etuddagi rang munosabatlarining o'matilganligi tufayli qabul qiladi. Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o'zgaruvchandir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug'iik nurlarining tushish burchagiga (ertalab, kunduzi, kechqurun) qarab o'zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilishi ertalabki va kechkiga qaraganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etuddagi tus munosabatlari maium tusli va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitraning och va yorqin bo'yoqlari (quyoshli kun), boshqasida esa kam to'yingan quyuq, qoramtir bo'yoqlar qoilaniladi (bulutli kun). Shunday qilib, etud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiy tusni e'tiborga olish kerak. Bunga, awalom bor, barcha narsalaming yorqinligi, ranglaming to'yinganligiga bo'ysunishi zammr. Shuning uchun etudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani hal qilish zarur: naturaning etudida ko'proq yorqin, to'q va to'yingan dogiar rang va yorug'iik kuchi jihatdan

qanday boiadi. Shular atrofida etudning barcha jihatlari va obyektlari rang munosabatlari asosida qurilgan boiishi kerak.

Ko'zning moslashuvi deb ataluvchi (yomgiikka ko'z sezuvchanligining oshishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to'satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o'zgarib, to'qroq boiib ko'rinadi.

Manzara etudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara obyektlari va narsalarni yaxlit ko'rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko'rinishni yorqin ranglarda, keyingi ko'rinishlarai esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko'rish orqali manzaraning perspektiv oichamlarini, ularaig turli ko'rinishdagi rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini ifodalayotganda ranglar mutanosibligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo'yoqlar, kechqurin esa sariq zarg'aldoq, bulutli kunda esa - neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O'rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-havorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarining mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak.

Kolorit hissiyotining tomoshabinga ta'sir kuchi shunda namoyon bo'ladiki, qachonki, kartinadagi narsalar, obyekt yoki voqea ma'lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa. «Kim men uchun haqiqiy kolorit hisoblanadi?» - deb D.Didro o'zi javob beradi: «Tabiat ranglarini to'g'ri yoritilganligini tasvirlay olib kartinada uyg'unlikka erisha olgan rassomgina».

Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko'pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki e'tiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha

berilmaydi, ko‘pincha umuman noto‘g‘ri «munosabatlar» tushunchasi deyilganda rang turlarining nomutanosibligi, etud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarining farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko‘p asrlar oldin narsalarning ranglari muhit bilan, yoritilish sharoitlari bilan, o‘zgarishlarini bilishgan. Uyg‘onish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va havoyi perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko‘rinishida muhitni o‘mi (Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, D.Konstabl, D.Reynolds) toiaqonli bayon etilgan. Shunday boisa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Maium boiishicha, plener rangtasviri XIX asming ikkinchi yarmida rassomlar tasviming tusli va rangli koiamini saqlagan holda munosabatlar usuli bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo boigan (V.D. Polenov, I.I. Levitan, K. A. Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo‘yicha birinchi mashg‘ulotlar manzaraning asosiy obyektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etudlar boiishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dog‘i, yer yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog‘i va hokazolar).

«Etudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak», - deb yozgan K.A.Korovin.

1.1. Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: «Biz hali manzaradagi yer, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bogiash ko‘nikmalarini toiaqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, yaxlit boiib jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkab - manzarada suv, yer va osmonning to‘g‘ri rangli munosabatlariga erishishdir». Misol tariqasida N.N.Ge «Bulutlar», «Dengizda quyosh botishi» va G‘.Abdurahmanovning «Oydin kecha» manzara asarlarini ko‘rishimiz mumkin. Rassom N.N.Ge osmon, suv va yer munosabatlarini, old ko‘rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o‘zgarishlarini nozik ifodalagan. G‘. Abdurahmanovning asari esa to‘q rang surtmalari bilan osmon, yeming asosiy munosabatlari koi bo‘yi tasvirlangan. Bunday ko‘rinishlami dastlabki bir seansli etudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani

manzara etudidagi rang tuzilishi, uning materiallik va fazoviy sifatlarini hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaratish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib, umumiy ranglar munosabatini qisqa vaqtli etudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega boigach, ikki-uch seansga moijallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlarida (asosiy doglar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda bo'ylarni bajarishga o'tiladi va hokazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joylashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilning nozik ranglari va uning to'yinganligi uzoqlashish ta'sirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chalg'ib, ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bogliq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday boisa ham, tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik ta'siri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich davrida plenerdagi rangtasvir bo'yicha vazifa va mashqlar xuddi shunga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yaxshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak:

- I plener ochiq havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli;
- II asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash;
- III umumiy tus va rangdorlik holati;
- IV manzara obyektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi;
- V manzaraning mayda bo'ylari tasviri;

vi manzarada kenglik.

Manzara etudida yechiladigan muhim vazifa - turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini, yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda buni umumiy tus va rang holatini ko'rsatishga aytiladi. Xohlagan etudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlari mos bo'lmashligi kerak. Etudning rang farqlari albatta naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi zarur.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuq (qoramtir) va kam to'yingan bo'iyadi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'qlashadi, qizil, zarg'aldoq va sariq ranglar to'yinganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etudlar, umumiy tus va rang jihatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

«Manzarada, - deydi R. Falk, - asosiy si - havoii muhitning rangli holatidir».

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'ii diapazonli och-to'q, yorqin va qoramtir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yorug' va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi. Quyoshli kunda etud bajarishda palitrada yorqin va jozibali diapazonni to'ii ishlatadi. Kechqurun yoki bulutli kunda etuddagi rang munosabatlari to'qroq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'iamini saqlab qoladi.

Manzara etudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda, yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin: barcha etudlarda eng yorqin va ravshan doglar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

3.3.§. Me'morchilik obidalarini tasvirlashda kompozitsiya va perspektiva kengligi.

Biz manzara kompozitsiyasini bajarishni ahd qilgan ekanmiz tanlovning o'ziga yarasha muammolari mavjud. Shuning uchun ham kuzatilayotgan ob'ekt aniq va kompozitsiya talablariga munosib javob berishi uchun har bir detal sinchiklab kuzatiladi va qator qoralamalar bajariladi. Bajarilgan ish turli qurish nuqtalaridan bir necha marta bajarish shart. Har bir bajarilgan ob'ektning o'ziga xos yutuqlari bo'lgani kabi kamchiliklari ham mavjud yakuniy hulosaga kelingach, ortiqcha detallar chetlab o'tiladi. Kuzatilayotgan ob'ektning eng muhim aniqrog'i kishini o'ziga jalb qiladigan tomoni qisimiga boshqa qismlarga nisbatan ko'proq e'tibor ajratiladi. Bularning barchasi qurish nuqtasining qay darajada muvaffaqiyatli tanlanishi bilan bog'liq. Mabodo muammoni yechish murakkab kechadigan bo'lsak, u paytda videoiskatel kartondan to'rtburchak shaklida ichida qirqib olinib undan kuzatiladi. Natijada esa ortiqcha halaqt beruvchi ob'ektlarni sharti yo'qoladi. Tanlov paytida videoiskatel ko'rinish izlagich vertikal gohida esa gorizontal holatda ishlatiladi.

Perspektiva kengligi.

Manzarani tasvirlash jarayonida perspektiva qonunlari muhim o'rin egallaydi. Chunki hayotiy tajribalarga asoslanib juda ko'p tasvirlash qonunlariga duch kelamiz. Aslida g'oyani ilgari surish, yuzaga chiqarish kompozitsiyaga asoslansa, tasvirni savodli ko'rish, rang muammolari ko'rinishini perspektiva rangshunoslik nazariyasi hal etadi. Manzara janri aniq va savodli ko'rinishi chiziqli

perspektivasi orqali o'z yechimini topadi. Chunki kuzatilayotgan ob'ekt juda keng bo'shliqdan iborat bo'lib har bir detal o'z shakli va rangiga bo'lishi ob'ektda jonli xususiyatlar hosil qilishi bilan o'zgacha chiroy hosil qiladi va darhol tomoshabinni o'ziga tortadi. Bunday aniqlikka erishishi esa ufq chizig'i ko'rish, tutashuv nuqtalarining aniq topilishi bilan bog'liq bo'ladi. Planlilik detallarning uzoq yaqin yoki ustma-ust joylashuvi manzaraning muammoli yechimini hal qilinishida muhim rol o'ynaydi. Chunki ular biri ikkinchisini kamchiligini to'ldirib, ayrim o'rinlarda ko'ngilni ko'taruvchi hissiyotlar hosil qilinishi bilan muhim. Tasvirda yakka detallar elementlar yoki rangli tus darajalari ham ma'lum darajada o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi ta'minlangan bo'lishi juda ham zarur. Ayrim paytlarda bunday holatlar pala-partish joylashib tasvirning ko'rinishini yoqimsiz tarzda bo'lishiga olib keladi. Ranglar ham chiziqlar kabi o'z tusini uzoqlashgan pasaytirib, kulrangga yaqinlashib boradi, chiziqlar esa vertikaliga qisqarib gorizontal chiziqlar esa gohida pasayib gohida yuqoriga intiladi. Yuqoridagilarga to'liq amal qilib g'oyani aniq maqsadlarda yuzaga chiqarish ishni to'liq yakunlanishini ta'minlaydi.

Yorug'lik va soyaning manzarada yetkazilishi.

Yorug'lik ham rangtasvirda boshqa tasvirlash vositalari kabi alohida vazifalarni bajaradi. Ayniqsa rangtasvir kompozitsiyasi ustida ishlash jarayonida yorug' soya qonunidan unumli foydalanish ishning muvaffaqiyatli chiqishida muhim rol o'ynaydi. Yorug' soya har doim, daqiqalar ichida o'zgarib turuvchan tabiiy holatdir. Tasvirda bunday tez o'zgaruvchan holatni yetkazish juda mushkul ish, shu

bois ham yorug'likning tez o'zgaruvchan xususiyatlarini ertalab, tush va oqshom paytlari kuzatish foydali: Lekin bu bilan kifoyalanib bo'lmaydi, chunki ular yil fasllari bilan bog'liq bo'lib yozning quyoshli kuni, kishining izg'irinli holatini tenglashtirib bo'lmaydi, shuningdek bahor, kuz fasli bilan tubdan farq qiladi. Har bir daqiqani kunni va fasllarni ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan erta tong paytini kuzatsak, quyosh ufq chizig'iga yaqin joylashadi. Shuning uchun uning nurlari uzun va quyuq bo'ladi. Tuslar qarama-qarshiligi esa past havo yaltiroq va yorug' qabul qilinadi. Tushga yaqin payti esa nurlar aniq va quyuq ranglar qorishmasi yaxshigina kuzatiladi. Manzarada to'q ranglarni hosil qiladi. Kechga yaqin esa quyosh nurlari gorizontal chizig'iga yanada yaqinlashib, endilikda kuzatilayotgan ob'ektning orqa tomonidan tushib keladi va orqa planini yoritadi. Tabiatning ruhiy holatini hisobga olish zarur bo'ladi.

3.4§." Abdulxoliq G'ijduvoni "majmuasini moybo'yoqda tasvirlash texnologiyasi

Bugungi kunda shaharlar tarixini o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Hududda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, mashg'ulotlari va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini chuqurroq o'rganishga yordam beradigan maskan hisoblanadi. Bu esa o'zining asori atiqalari bilan jahonga mashhur " **Abdulxoliq G'ijduvoni** "ni o'rganish bu qadimiy shahar haqidagi tasvirlarni qog'ozda moy bo'yoq asosida aks ettira oladigan darajadagi bilimlarini bir qadar bo'lsada kengaytirishga yordam berdi. Manzara rang tasviriga moy bo'yoqda bajarishga kirishishdan oldin uning ishlash texnikasini, gruntlash, podramnik yasash, ranglar xususiyatini o'rganish kerak bo'ladi. Biz quyidagi moy bo'yoqda tasvirni bajarish uchun kerak bo'ladigan materiallar va ishlash texnikasi bilan tanishib chiqamiz.

Moy bo'yoqni ishlash asosida xolst, karton, fanera kabi materiallar yotadi. Tasvir yuqoridagi materiallarga ishlanadi. Ushbu tasvirlar chizishdan oldin yuqoridagi materiallar maxsus grunt bilan qoplanadi. Grunt asos bilan rang o'rtasidagi aloqa vositasini bajaradi. Bir tomonda u bo'lsa xolstga rangni erkin quyish mumkin, ikkinchi tomondan u rangni sizib ketishga yo'l qo'ymaydi. Xolst bu maxsus mato bo'lib moy rang tasviriga mo'ljallangan. Xolst o'zi tayyor gruntlangan bo'ladi. Lekin ko'pgina rassomlar grunt ustidan yana bir bor yyelimli grunt ustidan yana bir bor yyelimli grunt surkashni ma'qul ko'radilar. Podramnik qurigan yog'ochdan tayyorlanadi va unga xolst tortiladi. Xolst tortishda aloxida e'tiborni qaratish kerak. Chunki u salqi bo'lib qolmasligi kerak. Xolst tortilgandan

so'ng jelatin yoki baliq yyelimi bilan prokleyka qilinadi. Moy bo'yoqda ishlash uchun uni erishishda razbavitel ishlatiladi. Suyultirgich dommar, kak mastichniy lak hoida hamda zig'ir yog'i spipidar ham bo'lishi mumkin. Moy bo'yoqda ishlash texnikasini egallash uchun eng avvalo kerakli materiallarni bilish zarur. Moy bo'yoq rang tasviri uchun qalin mato ishlatiladi. Bu uchun mato oldin yuvilmagan bo'lishi kerak. Ko'p hollarda talabalar ishlatilgan xolstni bo'yab yana ishlatadilar. Biroq bu xolstni ramkaga tortish qiyin. Mato tanlaganda u to'qilgandan so'ng donadorlik hosil qilishi bo'yoqni qalin qilib surtganda ham saqlaydi. Agar ish bir metrgacha bo'lsa mayda donador xolstlardan undan katta bo'lsa esa katta donador xolstlardan foydalanish tavsiya etiladi. Matoni tortish uchun maxsus podramniklar kerak bo'ladi. Agar ramka bir metr bo'lsa albatta o'rtasidan qo'shimcha reyka berish kerak. Reykalar bir biriga qulf kalit hamda kiritiladi. Xolst podramnikdan ham uzunligi ham enidan 2,3 sm katta bo'lishi lozim. Xolstni tortishda eng avvalo o'rtalaridan yengil mixlanadi so'ng o'rtadan boshlab burchakka qarab ketiladi. Yuvilmagan matoni ramkaga juda qattiq tortish tavsiya etilmaydi, buning sababi yuza gruppalanganda nam ta'sirida qattiq tortiladi va uzilish bo'lishi mumkin. Xolstni gruppalash. Xolstni gruntlash bir necha qatlamda bajariladi. Eng avvalo u prokleyka qilinadi, ya'ni yuza texnik jelatin issiq suvda yaxshi eriydi. Baliq yyelimi tayyorlash uchun bir sutka davomida suvda saqlanadi. So'ng suv qo'shilgan holda isitishadi. Bu uchun ikkita katta kichik kastyul ichiga yyelim solinadi. Kichik kastyul ichiga yyelim katta kastyulga suv solib joylashtiriladi. Katta idishdagi suv yyelimini kuyishdan

saqladi va yyelimni qaynatish darajasiga olib bormaslik kerak. Proleyka uchun tiniq tusdagi duradgorlik yyelimi ishlatiladi. Kazeynli grup tayyorlash uchun yogsiz suzmani olib unga suv va noshatir spioti qo'shiladi. Xosil bo'lgan massa suvi sirkitilib quritiladi. Agar kerak bo'lsa unga suv qo'shib erilishi mumkin. Bunda xam xolst yupqa qatlamda qoplanadi. Ezaga katta mo'yqalam bilan bir tekisda eritma surtiladi. Yyelim eritmasi suritilgandan so'ng yuzaga bir necha marta yupqa qatlamda gruppalanadi.

Gruntlar yog'li, yyelimli va emulsiyali bo'ladi. Yog'li grunt bu oq moy bo'yoq bo'lib hisoblanadi. Gruntlangan yuza yaxshi quritilishi zarur. Aks holda chizilgan tasvirdagi bo'yoqlar to'kilib ketishi mumkin. Emulsiyali grunt bu bo'r va yyelim aralashmasidir. Bunda emulsiya tayyorlash uchun zig'ir yog'i, yyelim va ruxli oq rang poroshogi eki bur qo'shiladi. Yyelimli grunt bu bo'r yoki oq rang poroshogi erishilgan yelimga aralashtiriladi . Bunda ham yuzaga aralashma bir necha marta yupqa qilib surtiladi. Gruntlashdan ko'zlangan maqsad katta o'llchamdagi xolstda chizilgan rasmlarni bir joydan ikkinchisiga ko'chirganda uni ramkadan yechib olinadi va rulon tarzida o'raladi. Yengil yelim surilishi va egli grunt kartinani uzoq saqlashnishiga imkon yaratadi. Oldingi davr musavvirlari rang tasvir boshlashdan oldin yuzani bir marta yengil yelim aralashmasi surtganlar bazilari esa sarimsoq yoki piyozni gruntlangan yuzasiga surtib chiqqanlar bu esa xolstga rangni yaxshi yuritishga yordam beradi. Bo'yoqlarni eritish uchun oldingi davr rassomlari zig'ir va yong'oq egclarini ishlatganlar. Yuzaga esa ko'p xollarda lak surtganlar bu ishga yaltiroqlik bag'ishlagan va

chaplardan saqlagan. Moy bo'yoqda ishlash uchun qattiq junli mo'yqalamlar ishlatiladi. Keng yuzalarini ishlash uchun katta mo'yqalamlar ,detallarni ishlash uchun 2-7 o'lchamdagi mo'yqalamlar ishlatiladi. Mo'yqalamlar ishlatilib bo'lingandan so'ng sovunli iliq suvda yuviladi va uch qismga qog'oz o'ralib, bankaga solib qo'yiladi. Metall kurakcha bilan palitrada qotgan bo'yoqlar tozalanadi, mato yuzasiga xato quyilgan bo'yoqlar olinadi hamda tasvirlarni to'liq ishlash ham mumkin.

IV.Xulosa.

Har qanday san'at turi insonga o'z ta'sirini o'tqazib unda dunyo qarashini shakllantiradi. Tasviriy san'at insonda xayotdagi ko'rsatgan jasoratini, fikr va ichki xisssiyotlarini aks ettiradi.

O'zbek tasviriy san'atini dastlabki rivojlanishi bosqichida rassomlar xaqiqatni yarim manzara shaklida tasvirlashdi. Ularni sharqona xayot, yodgorlik, obidalar fonida, dala – bozor xayoti, choyxonada xordiq chiqarayotgan rang – barang liboslardagi odamlar qiziqtdirdi.

Xalqning yangi turmush – tarzi, qishloq xayoti, paxta dalalaridagi mexnat jarayoni, o'zbek rassomlarining asosiy mavzusi bo'lib qoldi, O'zbekiston tasviriy san'ati hozirgi bosqichda "Professionalizm" – maxorat jihatidan o'zining yuqori mavqeiga ega bo'ldi.

Hozirgi zamon san'ati rivojlanishiga, rassomning ijodiy izlanishni yangi mazmunli goyya, insonlarining ma'naviy – ma'rifiy talablarini qondirish bilan boglikdir. Shuning uchun kartina kompozitsiyasi echimi, murakkab ruxiy xolatini topish, rassomdan kundalik xayotidagi hodisalarni aks ettirish muammolarini, zamondoshlarning ichki xis – to'ygularini sezishni, to'g'ri chukur tasavvur etishni talab qiladi.

Rassomlar zimmasiga o'z asarlariga badiiy obrazlarni yaratish vositalarini boyitish, taraqqiy etgan jaxon ilgor rassomlari bilan denekarashlari qo'lamini kengaytirish kabi ma'suliyatlar qoyilgan.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot yo'lidan olg'a rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muxim vazifa va muammolar turibdi.

Darhaqiqat, bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichda kirganki unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat aql – idrok fikr ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Endilikda xar qaysi davlat, xar qaysi millat, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyat va ma'naviyati bilan kuchlidir. Mamlakatimiz kelajagi so'zsiz kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, ta'lim – tarbiya tuzumini tubdan o'zgartirish, uni davr talaba darajasiga ko'tarish, jamiyatimizning, xar birimizning oldimizdagi eng muxim vazifalaridan bori bo'lmogi kerak.

V.Adabiyotlar ro'yxati

1. O.K. Arixtin "Tasviriy san'at asoslari" 1967 yil.
2. G.M. Abduraxmonov "Tasviriy san'at kompozitsiyasi" 1996 yil Toshkent.
3. M. I. Zemskaya "Aleksandr Volokov Master granatovoy chayxani"
Xudojnik 1975 yil.
5. V. Shoroxov "Osnovi kompozitsii" Moskva "Prosveshenie" 1979 yil.
6. A. Egamberdiev "Stankovaya jivopis Uzbekistana" Gofur Gulom
Toshkent 1989 yil.
7. A. R. Umarov "Abdulxaq Abdullaev" izd. Xudojnik 1971 yil.
8. M. Sokolova P. Benkov vospominaniyasi, perepiski G. Gulyama
Toshkent 1981 yil.
9. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, O'qituvchi, 1986 yil.
10. Abdullaev N.I. "San'at tarixi"- Toshkent, San'at, 2001 yil.
11. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. Toshkent,
O'qituvchi, 1984 yil.
12. Azimova B.Z, Rajabov R, Abdurasilov S.G. Tasviriy san'atga oid
atamalarning zoxli lugati. Toshkent 1994 yil.
13. Barsh I.O. Naroski i zarisovki. M., 1970 yil.
14. Boymetov B. Qalamtasvr o'qitishning ilmiy asoslari. Metodik tavsiyalar.
Toshkent 1995 yil.
15. Kuzin V.S. Nabroski i zarisovki. M., 1970 yil.
16. Kuzin V.S.Voprosq izobrazitel'nogo tvorchestva. M., 1971 yl.

17. Smirnov G. V. Izobrazitelnoe iskusstvo. M., Prosveshchenie, 1977 yil.
18. Terentev A. E. Izobrajenie jivotnix i ptist sredstvami risunka i voprosi. M., 1980 yil.
19. Shoroxov E.V. Osnovi kompozistii. M., Prosveshenie, 1976 yil.
20. Xasanov Raim Metodicheskie osnovy xudojestvennogo obrazovaniya i vospitaniya v uzbekskoy shkole. Toshkent. Fan, 1990 yil.



